

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI



“2.2 BOLALAR PSIXOLOGIYASI”

moduli bo‘yicha

“Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari”
yo‘nalishi bo‘yicha maktabgacha ta’lim
tashkilotlari pedagog kadrlarini malakasini
oshirish kursi uchun



Toshkent-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH**

BOLALAR PSIXOLOGIYASI
moduli bo‘yicha

**“Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari” yo‘nalishi bo‘yicha maktabgacha ta’lim
tashkilotlari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun**

**O‘ Q U V – U S L U B I Y
M A J M U A**

Toshkent- 2024

Modulning o‘quv uslubiy majmuasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Pulatov J.A. Institutning “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini mudiri, PhD., dotsent

Kurbonova Sh.N. Institutning Farg‘ona filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar” kafedrasini katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Z.P.Rasulov Institutning “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini dotsenti PhD

Yuldasheva M.B. FarDU “Psixologiya” kafedrasini, v.v.b., PhD.

O‘quv uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini 2024-yil - -----da o‘tkazilgan –sonli yig‘ilish bayoni bilan muhokamadan o‘tkazilgan va Ilmiy kengashga tavsiya etilgan.


MUNDARIJA

I.	Ishchi dastur	6-13
II.	Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari..	14-21
III.	Nazariy materiallar	22-72
IV.	Amaliy mashg‘ulot materiallari	73-104
V.	Glossariy	105-116
VI	Test savollari.....	117-129
VII	Adabiyotlar ro‘yxati.....	130-132

2.2

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**



“Tasdiqlayman”

Institut rektori

I. Tursunaliyev

2024-yil “3” yanvar

**BOLALAR PSIXOLOGIYASI
moduli bo‘yicha**

ISHCHI O‘QUV DASTURI

“Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari”
maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan
jismoniy tarbiya yo‘riqchilari malaka oshirish kursi uchun

Modulning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan 2023-yil 29-dekabrda kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan 2023-yil 29-dekabrda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

J.A.Pulatov Institutni "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh.N. Kurbonova Institutning Farg'ona filiali "Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar" kafedrasini katta o'qituvchisi


Taqrizchilar:

Z.P.Rasulov Institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.B.Yuldasheva FarDU "Psixologiya" kafedrasini dotsenti v.b., psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Ishchi o'quv dasturi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2024-yil 3 - 04 da o'tkazilgan 1 - sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqqa tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



J.A.Pulatov

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi:

-maktabgacha ta'lim tashkilotlari jismoniy tarbiya yo'riqchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini davlat talablari asosida chuqurlashtirish, yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga oid nazariy - metodologik asoslari bilan qurollantirish, o'yin faoliyatining bola taraqqiyotidagi o'rni, bolaning maktabga psixologik yetuklik jihatlari kabi masalalari to'g'risidagi bilimlar tizimidan foydalanish imkonini beradigan zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish orqali zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metodologik bilimlarni shakllantirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar psixologiyasining umumiy masalalari bo'yicha bilim, ko'nikmalarni rivojlantirish;

-maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, o'yin va mehnat faoliyatlarining bola taraqqiyotidagi o'rni, bolaning maktabga psixologik yetuklik jihatlari kabi masalalari to'g'risidagi tushunchalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish;

-tinglovchilar zamonaviy psixologik metodikani o'z amaliy faoliyatlarida qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- o'z kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadida tinglovchilar shaxsiy ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalari haqida tasavvurlar hosil qilish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Bolalar psixologiyasi” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- bolalar psixologiyasi fanining predmetini;
- bolalar psixologiyasining metodlarini;
- bolalar psixologiyasining nazariy asoslarini;
- bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlarini;
- tarbiyachi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o'rni;
- ta'lim-tarbiyada differensial yondashuv jarayonida bolalarning biologik va ijtimoiy rivojlanish omillarining roli;
- harakterdagi individual farqlar;
- bolaning maktabga yetuklik jihatlarning psixologik xususiyatlarini;
- bolaning bilish jarayonlari, emotsional-motivatsion sohasini rivojlanishida o'yin faoliyati ahamiyati haqida bilishi;

-ta'lim-tarbiyani tashkillashtirishda bola individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

- bola taraqqiyotini ta'minlash uchun didaktik o'yinlarni tashkillashtira olish;

- jamoa a'zolarining shaxs xususiyatlarini va emotsional holatlarini hisobga olgan holda, ular bilan samarali muloqot qilish;

- bolalar jamoasini boshqara olish;

pedagogik faoliyatni samaradorligini oshirish uchun o'z ustida ishlash **ko'nikmalariga;**

- bolaning bilish jarayonlarini oshirish uchun o'quv-tarbiya mashg'ulotlarini loyihalash;

- bolalar bilan ishlashda differensial yondashish;

- bolaning emotsional - motivatsion sohasini rivojlantiruvchi o'quv mashg'ulotlar dasturini yaratish;

- ta'lim samaradorligini oshirish uchun pedagogik ijtimoiy persepsiyani rivojlantirish malakalariga;

- bolalarni ta'lim jarayoniga aqliy va ijtimoiy-psixologik tayyorlashning psixologik tomonlarini bilish;

- bilish faoliyati sohasida bolaning maktabdagi ta'lim jarayoniga tayyorligi darajasini tushunish;

- bolalarning maktabga tayyorgarligini tekshirishda psixodiagnostika metodlaridan foydalanish;

- malaka oshirish kursida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalardan kasbiy faoliyatda foydalanish **kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.**

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Jismoniy tarbiya yo'riqchisining professional kompetentligi va mahorati", "Bolalarda morfofunktsional o'zgarishlar", "Boshlang'ich gimnastika mashg'ulotlarini o'tkazish uslubiyati", "Harakatli o'yinlarni o'qitish uslubiyati" kabi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta'limidagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, yosh va psixologik xususiyatlarini o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soatlari					Mustaqil tayyorgarlik
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				
			Jumladan				
			Jami	Nazariy	Amaliy	Ko'chma	
1.	Bolalar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari.	2	2	2			
2.	Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi	2	2	2			
3.	Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatini psixologik xususiyatlari	2	2		2		
4.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlantirishda psixotrening mashg'ulotlarni o'rni	2	2		2		
	Jami:	8	8	4	4		

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1-Mavzu: Bolalar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1.1. Bolalar psixologiyasining umumiy masalalari

1.2. Bolalar psixologiyasining tadqiqot metodlari

Bolalar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari, bolalar psixologiyasi fanining fanlararo aloqadorligi, Bolalar psixologiyasining tadqiqot metodlari.

2-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi

Reja:

2.1. Kichik yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti va yosh bosqichlari

2.2. Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti va ta'limi.

3-5 kichik yosh davri psixik jarayonlar, individual-psixologik xususiyatlar, hissiy-irodaviy holatlari. 6-7 yoshda maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarni bilish jarayonlari, individual-psixologik xususiyatlar, motiv, hissiy-irodaviy holatlari.

AMALIY TA'LIM MAZMUNI

3-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatini psixologik xususiyatlari

Reja:

- 3.1. O'yin bog'cha yoshdagi bolalarda yetakchi faoliyat sifatida
- 3.2. O'yin faoliyatini bola psixik taraqqiyotiga ta'siri
- 3.3. O'yin turlari va ularni psixologik xususiyatlari

Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, mental arifmetika, elementar matematika, qo'l motorika, art terapiya, musiqa terapiya, qum terapiyasi, ertak terapiya, syujet-rolli o'yinlar, milliy va harakatli o'yinlar.

4-Mavzu Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlantirishda psixotrening mashg'ulotlarni o'rni.

Reja:

- 4.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya va sportga yo'naltirishga oid psixotrening mashg'ulotlarni o'rni va samaradorligi
- 4.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni barkamollashtirishga qaratilgan treninglar

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya va sportga yo'naltirishga oid psixotrening mashg'ulotlarni o'rni va samaradorligi. Trening tushunchasi va tashkil etish bosqichlari (futbol, basketbol, volan va raketka, badminton, suzishga oid psixotreninglar.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev.Sh.M. “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”. -T.: O‘zbekiston. 2021 yil. -464.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston. – 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ -637-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-may dagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, PQ-4312-son Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 13 may, 391-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019 yil 25 iyul, 626-son Qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori.
9. O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022

III. Maxsus adabiyotlar

1. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi [Matn]: o'quv qo'llanma: Q.1 / X. Tulenova [va boshq.]; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2012. – 172 b. ISBN978-9943-13-350-1
2. Kurbonova Sh.N. Bolalar psixologiyasi. “Jismoniy tarbiya yo'riqchilari” yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. 2023.-174 b.
3. Кенеман А.В. Теория и методика физического воспитания детей дошкольного возраста [ТЕКСТ]: учеб.для студентов вузов / А.В. Кенеман, Д.В. Хухлаева. – 3-е изд., – М.: Просвещение, 1985. – 271 с.
4. Мухина В.С. Детская психология. учеб. для студентов./под ред. Л.А. Венгера. – 2-е изд., – М.: Просвещение, 1985. – 272 с.
5. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
6. Pulatov J.A. Yosh davrlari psixologiyasi. [Matn]: Darslik. Toshkent: “Umid design”, 2022.-203 b.
7. Tulenova X.B. Sport psixologiyasi: 5141900 – Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “Yurist-mediya”, 2011. – 270 b. ISBN 978-9943-387-09-6
8. Voxidov M. Bolalar psixologiyasi. Toshkent. 1974
9. Детские народные подвижные игры [ТЕКСТ]: кн. Для воспитателей дет.сада и родителей / сост.: А.В. Кенеман, Т.И. Осокина. – 2-е изд., М.: Просвещение, 1995. – 224 с.
10. Смирнова Е.О. Детская психология. учеб. для студентов выш. пед. учеб. заведений, «Дошкольная педагогика и психология»/ Смирнова Е.О. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2008. – 366 с. ISBN 978-5-691-00893-1
11. Урунтаева Г.А. Детская психология: учеб. для студентов выш. пед. учеб. заведений / Урунтаева Г.А. . – М.: изд. центр “АКАДЕМИЯ”, 2013. – 336 с. ISBN 978-5-7695-9674-2

Elektron ta'lim resurslari


1. <http://edu.uz/>
2. <http://lex.uz/>
3. <http://sportedu.uz/>
4. <http://lib.sportedu.uz/>
5. <http://ziyonet.uz/>



**MODULNI O‘QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA’LIM METODLARI**

“SWOT-TAHLIL” METODI

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Namuna: Maktabgacha ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun tavsiya etilgan harakatli o‘yinlardan sanaladigan “Tortishmchoq” mashg‘uloti yuzasidan SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Tortishmchoq harakatli o‘yining kuchli tomonlari <ul style="list-style-type: none"> • • • • 	W	Tortishmchoq harakatli o‘yining kuchsiz tomonlari <ul style="list-style-type: none"> • • • •
O	Tortishmchoq harakatli o‘yining imkoniyatlari <ul style="list-style-type: none"> • 	T	Tortishmchoq harakatli o‘yining to‘siqlar <ul style="list-style-type: none"> •

	•		•
	•		•
	•		•

“XULOSALASH” (REZYUME, VEER) METODI

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



O‘qituvchi tinglovchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi



Dars maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi.



Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi.



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Harakatli o‘yin ko‘rinishlari					
Podsho-vazir		To‘qqiz tosh		Xalqalarni mo‘ljalga otish	
<i>afzalligi</i>	<i>kamchiligi</i>	<i>afzalligi</i>	<i>kamchiligi</i>	<i>afzalligi</i>	<i>kamchiligi</i>
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•

Xulosa:

“KEYS-STADI” METODI

“Keys-stadi” – inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> • yakka tartibdagi audio-vizual ish; • keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); • axborotni umumlashtirish; • axborot tahlili; • muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ini belgilash	<ul style="list-style-type: none"> • individual va guruhda ishlash; • muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; • asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining	<ul style="list-style-type: none"> • individual va guruhda ishlash; • muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;


yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> • har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; • muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> • yakka va guruhda ishlash; • muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; • ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; • yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Mazkur metod dastlab 1924 yil Garvard biznes maktabida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“FSMU” METODI

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi: Qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi; har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi: ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

“ASSESSMENT” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali tinglovchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;

belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Xarakter		
Qobiliyat		
Temperament		
Layoqat		
Jismoniy sifat		

Izoh: Ikkinchi ustunchaga tinglovchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

“KLAUSTER” usuli

Klaster – axborot xaritasini tuzish yo‘li – barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish hisoblanadi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Tinglovchilar:

1. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga **“SPORT”** degan mulohaza uchun mavzu yoziladi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

2. Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘zlar kichik doirachilar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiradilar. Bu “yo‘ldoshlardan” “kichik yo‘ldoshlar” chiqariladi. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

3. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

KLASTER
(Klaster – tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li – barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni vig‘ish.
Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 ta so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi

Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu “yo‘ldoshlarda” “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugaguncha davom etishi mumkin.

Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.



NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

**1-Mavzu: Bolalar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari.
Nazariy mashg‘ulotning ta’lim texnologiyasi.**

O‘quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli:	Nazariy mashg‘ulot
Ma’ruza rejasi:	1. Bolalar psixologiyasining umumiy masalalari. 2. Bolalar psixologiyasining tadqiqot metodlari.
• O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:	Nazariy mashg‘ulotning didaktik maqsadi tinglovchilarga Bolalar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari, bolalar psixologiyasi fanining fanlararo aloqadorligi, Bolalar psixologiyasining tadqiqot metodlari bo‘yicha nazariy bilimlarni shakllantirish.
• Pedagogik vazifalar: – maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish orqali zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan metodologik bilimlarni shakllantirish; – ta’lim-tarbiya jarayonida bolalar psixologiyasining umumiy masalalari bo‘yicha bilim, ko‘nikmalarni rivojlantirish; - mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatish;	• O‘quv natijalari: • Nazariy mashg‘ulotdan so‘ng tinglovchilar bilishi lozim: 1. Bolalar psixologiyasi fanining predmetini; 2. Bolalar psixologiyasining metodlarini; 3. Bolalar psixologiyasining nazariy asoslarini; 4. Bola taraqqiyotini ta’minlash uchun didaktik o‘yinlarni tashkillashtira olish haqida <i>bilishi</i> kerak.
• Ta’lim metodlari:	• Ma’ruza, suhbat, munozara, tezkor so‘rov.
• Ta’lim vositalari:	• Ma’ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, videoproyektor, prezentatsiyalar.
• Ta’lim shakli:	• Frontal, guruhlarda ishlash.
• O‘qitish shart-sharoitlari:	• Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
• Monitoring va baholash.	• Nazorat savollari.

1-MAVZU: BOLALAR PSIXOLOGIYASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja

- 1.1. Bolalar psixologiyasining umumiy masalalari.
- 1.2. Bolalar psixologiyasining tadqiqot metodlari.

***Tayanch iboralar:** bola, maktabgacha yosh davri, psixologiya, psixika, bilish jarayonlari, hissiy holatlar, tipologik xususiyatlar, psixik qonuniyatlar*

1.1. BOLALAR PSIXOLOGIYASINING UMUMIY MASALALARI.

Bolalar psixologiyasi — psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko‘pincha yosh psixologiyasi deb ataydilar. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar paydo bo‘lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, turli xil faoliyatning (o‘yinlar, o‘qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o‘rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o‘rganishda ko‘ndalang kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o‘tkaziladi.

Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o‘zi bir vaqtda turli yosh guruhlariga taalluqli bo‘lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holat (longityud) da esa ma’lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko‘p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o‘z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo‘lgan ishonch, hurmat, qo‘llab-quvvatlash, unga bo‘lgan e’tiborlarini his qildirish mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan holatlar o‘rgatiladi. Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko‘zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo‘lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko‘rsa, bola uchun u inson yaxshi bo‘ladi. Bu holat bolani 10-12

yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati — bu ko'zgidagi sizning aksingiz.

Bolalar psixologiyasi 19-asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqq boshladi. Uning ma'lumot va xulosalari yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti uchun, umumiy psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega.

Bolalar psixologiyasining predmeti — inson psixikasining ontogenezi sharoitlari va harakatlantiruvchi sabablarini, individual aqliy jarayonlarni (kognitiv, irodali, hissiy), shuningdek, bolalar faoliyatining har xil turlarini (o'yinlar, mehnat) rivojlanishini o'rganish, o'qitish), shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Alohida psixik jarayonlar mustaqil ravishda rivojlanmaydi, balki ma'lum bir tabiiy moyilliklarga ega bo'lgan va muayyan ijtimoiy sharoitlarda yashaydigan, harakat qiladigan va tarbiyalangan bolaning ajralmas shaxsining xususiyatlari sifatida rivojlanadi. Nochor go'dakni jamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lgan mustaqil voyaga yetgan shaxsga aylantirish jarayonida bola psixikasining rivojlanishi ham sodir bo'ladi, obyektiv voqelikning aks etishi murakkablashadi va takomillashadi.

Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog'cha yoshdagi

bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq me'yorlari, kishilarni anglashi, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi, u yangiliklarni egallashga nisbatan o'z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Inson — biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliy nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatining ongli subyekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning tuzilishi; ijtimoiylashish usullari, atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Bu ta'limotga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. Angliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini «top-toza paxtaga» o'xshatadi. Uning fikricha, bolaning «top-toza paxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarining tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgaralar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir, deb ta'kidlaydi.

Ma'lumki, odam shaxs sifatida muntazam, qandaydir faoliyatda tarkib topib boradi, rivojlanadi, uning faolligi namoyon bo'ladi. Agarda hayvonlar tevarak-atrofdagi tashqi muhitga passiv moslashib, hayot faoliyatlarida tabiatdagi, ya'ni tashqi muhitdagi tayyor narsalardan foydalansalar, odam esa tevarak-atrofidagi tashqi muhitga faol ta'sir ko'rsatib, uni o'z irodasiga bo'ysundiradi hamda o'zgartirib, o'z ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildiradi. Kuzatishlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, odamdagi tug'ma, irsiy mexanizmlari uning psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, biroq uning mazmunini ham, shaxsiy fazilatlarini ham belgilab bera olmaydi, ta'kidlash zarurki, muhit ham bola psixikasini rivojlantirishda muayyan rol o'ynaydi. Faqat, buning uchun bolani o'qitayotgan kishilarning ta'siri natijasida bola ana shu muhitni faol ravishda o'rganib olishi, tabiiydir. Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izohlab beradi. Ulardan;

- birinchisi — inson tug'ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri;
- ikkinchisi — odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim tarbiyaning ta'siri;
- uchinchisi — odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siridir.

Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muhitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya'ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg'ayadi, shakllanadi. Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfnig, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyandasi sifatida va nihoyat, tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lgan muayyan jamoalarning faol a'zosi sifatida qatnashadi. Shaxsning mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlari, ijodiy faolligining rivojlaiish manbalari uning tevarak atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti

odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, xarakteri, irodaviy sifatlari, qiziqishlari, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi. Bu borada, birinchidan, odam muhit ta'siri ostidagi passiv obyekt bo'lmay, balki faol mavjudotdir, Shu bois hayot sharoiti, tashqi ta'sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo'lgan o'zaro ta'siri orqali, uning muhitdagi faoliyati orqali belgilanadi. Shu sababli muhitning ta'siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol o'zaro ta'siri haqida gapirish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi pirovard natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta'sirotlarga bog'liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta'sir qiladi. Uchinchidan, odam faol mavjudot sifatida o'zi ham ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin, lekin, bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi. Yuqoridagilardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, odamning (bolaning) ijtimoiy tashkil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hamda shartidir. O'z-o'zidan ma'lumki, odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imkoniyatlar nihoyatda zarurdir. Inson psixik xususiyatlari me'yorida tarkib topishi o'chun muayyan darajadagi biologik tuzilish, inson miyasi va nerv sistemasi bo'lishi shart. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlangani harakatga keltiruvchi kuchlar, omillar emas, balki faqat dastlabki sharoitlardir. Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, insoniyat psixik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo'llarini va usullarini belgilab beradi. Inson nerv sistemasining xususiyatlari o'z-o'ziga shaxsning hech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi, hech bir me'yordagi bola dadil yoki qo'rqqoq, irodali yoki irodasiz, mehnatsevar yoki yalqov, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi. Masalan, sabot-matonat va o'z-o'zini tuta

bilish xislatini nerv sistemasining tipi shiddatli bo'lgan bolalarda ham, yoki nerv sistemasining tipi vazmin bo'lgan bolalarda ham tarbiyalash mumkin va tarbiyalab bo'ladi. Biroq birinchi hol bolalarni tarbiyalash ikkinchi holdagilarni tarbiyalashga qaraganda qiyinroq bo'ladi. Har ikkala holda kerakli sifatlarni tarbiyalash yo'llari va usullari ham turlicha bo'ladi. Ikkinchidan, tabiiy xususiyatlar odamning biror sohada erishgan yutuqlari darajasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat ko'rsatkichlarida tug'ma individual farqlar mavjud. Shu sababli ba'zi odamlar boshqa odamlardan ma'lum bir faoliyatni egallash imkoniyati jihatidan ustun turishadi. Ba'zida esa aksincha, biror-bir faoliyat turini egallash imkoniyati jihatidan esa ulardan ortda qolishlari mumkin. Mana shu ma'noda olganda odamlar o'z qobiliyatlarini baravar rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar. Turli yo'nalishga ega bo'lgan psixologlar, bir tomondan ta'lim va tarbiya, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabati muammosini keng doirada muhokama qilmoqdalar. Rivojlanish deganda, odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir:

1) miyaning biologik, organik yetilishi, uning anatomik-fiziologik tuzilishi jihatidan yetilishi;

2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatadagi, o'ziga xos aqliy yetilish sifatidagi psixik rivojlaiishi, o'z-o'zidan ma'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik yetilishi bilan bog'liqdir va bu xususiyat ta'lim-tarbiya ishlarida, albatta, hisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organik jihatdan yetilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya buzilishining organik jihatdan yetilishini muhitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb bo'lmaydi. Muhit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi. Bu borada nemis psixologi V. Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixolog L.S. Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi,

deb aniq ifodalab beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta'lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jihatdan yetilish jarayoniga aralashmaslik, unga xalaqit bermaslik, balki ta'lim uchun imkoniyat yetilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak. Shveysariyalik psixolog J. Piajening nazariyasi ham ayni shu g'oyalar bilan yo'g'rilgandir. J. Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim — bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan muayyan yoshidan qat'iy nazar bog'liqligi ana shundan kelib chiqadi. Ta'kidlash joizki, ta'lim yetakchi rolni bajaradi, ta'lim va rivojlanish esa o'zaro bir-biriga bog'liqdir; ular alohida sodir bo'ladigan ikki jarayon bo'lmay, balki bir butun jarayondir ta'limsiz to'la aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Ta'lim rivojlanishga turtki bo'ladi, rivojlanishni o'z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug'ilganda ta'lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo'ladi, lekin, ta'lim rivojlanishga turtki bo'lish bilan bir vaqtda o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini albatta, inobatga oladi. Ta'limning imkoniyatlari juda keng bo'lsa-da, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S. Vigotskiy talim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy — tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixi taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olg'a surgan psixik funksiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyot uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi.

Bola rivojlanishining turli tomonlarini har xil fanlar - anatomiya, fiziologiya,

oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, gigiyena, etnografiya va boshqalar o'rganadi. Tug'ilgandan yetuklik davrigacha bola psixik taraqqiyotini o'rganish esa psixologik bilimlarning maxsus sohasi – bolalar psixologiyasining zimmasidadir. Chunki bolalar psixologiyasi bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlari, rivojlanishning turli bosqichlarida bola psixikasiga xos xususiyatlar haqidagi fandır.

L.F. Obuxova ta'kidlaganidek, bolalar psixologiyasi fanining **predmeti**



tarixan o'zgarib borgan. Bugungi kunda bolalar psixologiyasi fanining predmeti ontogenezdagi psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, yosh davrlari, bir yosh davridan boshqasiga o'tish sabablarini aniqlashdan iborat. Agar pediatr bolalarning jismoniy salomatligi bilan shug'ullansa, bolalar psixologi bola psixikasining qanchalik to'g'ri rivojlanayotgani va faoliyat ko'rsatayotganini, bordi-yu bu sohada kamchilik bo'lsa, uni nimaning hisobiga kompensatsiyalash mumkinligini o'rganadi.

Hozirgi kunda bolalar psixologiyasi fani **predmetining** kengayib borishi kuzatilmoqda. Bu hodisa bolaning homila davridagi rivojlanishini tobora chuqurroq o'rganish natijasida ro'y bermoqda.

Bolalar psixologiyasi bir qancha fanlar bilan uzviy aloqada bo'lib, bu fanlar qo'lga kiritayotgan faktlardan, qonuniyatlar hamda kashfiyotlardan keng foydalanadi. Bolalar psixologiyasi ta'lim-tarbiyaning maqsadi, yo'l-yo'riqlari va vazifalariga doir fikrlarni pedagogika fanidan oladi. Lekin shuning bilan birga bolalar psixologiyasi pedagogika faniga ham yaqindan yordam beradi. Bolalar psixologiyasi bir qator biologik fanlar bilan, birinchi navbatda, bolalar anatomiyasi hamda fiziologiyasi bilan bog'liqdir. Bu fanlar bolaning yoshi ulg'ayishi bilan yuzaga keladigan anatomik va fiziologik o'zgarishlar haqida ma'lumot beradi hamda psixik taraqqiyot yo'lini ilmiy tushunishga yordam beradi. Bolalar psixologiyasi bolalar gigiyenasi, bolalardagi kasalliklarni o'rganuvchi pediatriya

va bolalar psixopatologiyasi bilan ham bog‘liqdir. Bu fanlar bolalar psixik taraqqiyotining normal borayotganligini chuqurroq bilish va normal taraqqiyotdan burilish sabablarini anglash imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasi bolalar adabiyoti bilan ham ma’lum darajada aloqadordir. Bolalar psixologiyasi bolalarning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganishda tushuntirishda bolalar adabiyotidan, xususan, avtobiografik asarlardan keng foydalanadi.

Pedagogika — ta’lim va tarbiya qonunlari, metod va usullari haqidagi fan. U ta’lim va tarbiyaning maqsad va vazifalarini, ularning shaxs taraqqiyoti va jamiyat hayotidagi o‘rnini ochib beradi.

Pedagogika va psixologiya fanlarining insonga ta’lim va tarbiya berish sohasidagi hamkorligi chuqur tarixga ega. O‘z davrida mashhur rus pedagogi **K.D. Ushinskiy** pedagogika barkamol shaxs tarbiyasining rejasini ishlab chiqish uchun inson haqidagi barcha fanlarning yutuqlariga tayanishi kerakligi, bu fanlar orasida esa psixologiya markaziy o‘rin egallashini ta’kidlagan edi. Bolaga ta’lim va tarbiya berishga oid vazifalarni hal etishda pedagogika qanday qilib ta’lim-tarbiya berish kerakligini aytsa, psixologiya nima uchun aynan shunday qilish kerakligini aniqlaydi. Masalan, pedagogika maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limi va tarbiyasida o‘yin usullaridan foydalanish kerakligini ta’kidlaydi. Psixologiya esa buning sababi ushbu yosh davrida o‘yin yetakchi faoliyat ekanligini tushuntiradi.

Tibbiyot – inson salomatligi va kasalliklari, kasalliklarning oldini olish va ularni davolash, shuningdek, salomatlikni mustahkamlash haqidagi fan. Tibbiyot va psixologiyaning o‘zaro hamkorligi natijasida psixosomatik — psixologik omillarning salomatlikka, kasalliklar kelib chiqishiga ta’sirini o‘rganadi. Bolalarda uchraydigan ko‘pgina kasalliklarning manbai psixologik xarakterga egadir. Masalan, tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bronxial astma bilan og‘rigan kasallarning ko‘pchiligida bolaligidan ota-onalari his-tuyg‘ularni erkin ifodalash, tashabbus ko‘rsatish imkoniyatini chegaralangan.

Umumiy psixologiya - umumiy psixologik qonuniyatlarni, psixologiyaning

nazariy tamoyillarini, asosiy kategoriyalarini, metodlarini o‘rganuvchi nazariy va eksperimental tadqiqotlardir.

Masalan, umumiy psixologiya tafakkur faoliyatini xususiyatlari, tafakkur turlari va operatsiyalari haqida umumiy tasavvurni hosil qiladi. Bolalar psixologiyasi esa turli yosh bosqichlarida tafakkurning qanday xususiyatlar kasb etishi, uning qanday rivojlanishini o‘rganadi. Bunda u, umumiy psixologiyadagi qarashlarga tayanadi, uning metod va kategoriyalaridan foydalanadi.

Ijtimoiy psixologiya — psixologiya fanining tarmog‘i bo‘lib, insonlarning ijtimoiy guruhlariga mansubligi bilan taqozolangan xulq-atvori va faoliyatini, shuningdek, shu ijtimoiy guruhlarning o‘zini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bolalar psixologiyasi bola psixik taraqqiyotini o‘rganar ekan, albatta, bolalar guruhi, bu guruhda bolalar o‘rtasida amalga oshuvchi munosabatlarni e‘tibordan chetda qoldirmaydi. Bolalar psixologiyasi, ayniqsa, bolaning tengdoshlari va kattalar bilan bo‘lgan muloqoti va uning bola rivojlanishiga ta‘sirini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratadi.

Falsafa — tabiat, jamiyat va inson taraqqiyotining eng umumiy qonunlari haqidagi fan. Falsafa qonunlari boshqa fanlarning, shu jumladan, bolalar psixologiyasi fanining qonunlari bo‘lib hisoblanadi.

Masalan, falsafa qonunlari orasida dialektika ta‘limotining uch qonuni – qarama qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, inkorni inkor etish qonunlari asosiy o‘rinni egallaydi. Bola taraqqiyoti ham qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, ya‘ni mavjud ehtiyojlar bilan bolaning real imkoniyatlari o‘rtasidagi kurash natijasidir. Falsafa qonunlari bolalar psixologiyasi fani uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

1.2. BOLALAR PSIXOLOGIYASING TADQIQIOT METODLARI.

Bolalar psixologiyasi fanining taraqqiyoti ikki asosiy yo‘nalishda kechadi; psixik taraqqiyot manbalari muammosining nazariy hal etilishi va bolalar psixikasini o‘rganishning yanada samaraliroq metodlarini qidirish. Psixik taraqqiyot manbalari muammolari nazariy hal etish deganda, ushbu muammo bilan

shugʻullangan asosiy psixologik maktablar va yoʻnalishlar vakillarining qarashlari tushuniladi. Bola psixikasini oʻrganishning yanada samarali metodlarini qidirish bolalar psixik taraqqiyotiga xos xususiyatlar haqida aniqroq axborot olishga xizmat qiluvchi metodlarni ishlab chiqishni anglatadi. Taʼlim-tarbiya jarayonida bolalarga individual yondashish uchun ularning individual-psixologik xususiyatlarini, shaxsining oʻziga xosligini bilish, oʻrganish zarur. “Agar pedagogika odamni har jihatdan tarbiyalamoqchi boʻlsa, u oldin oʻsha odamni ham har jihatdan bilib olishi kerak”, - deb yozgan edi K.D. Ushinskiy.

Shuning uchun har bir tarbiyachi bolalarni oʻrganish usullari bilan qurollanishi shart. Demak, bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi asoslarini bilish har bir tarbiyachi, har bir uslubchi uchun muhim ahamiyatga ega.

Har bir fanning oʻz predmetini oʻrganish metodlari boʻlgani kabi, bolalar psixologiyasi ham psixologiya fanining alohida boʻlimlari sifatida oʻz tadqiqot metodlariga ega. Bolalar psixologiyasining metodlari faqat nazariy, ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki kundalik, amaliy vazifalarini hal qilish uchun ham zarur.

Anʼanaviy ravishda tadqiqot metodlari asosiy va yordamchi metodlarga ajratiladi. Asosiy metodlar — kuzatish va eksperiment — bola taraqqiyoti haqida ishonchli maʼlumot bera oladi. Yordamchi metodlar — test, soʻrov, faoliyat mahsullarini oʻrganish — tasvirlovchi maʼlumot berib, bu maʼlumot asosida faqatgina taxminlarni ilgari surish mumkin boʻladi.

Kuzatish — psixologik tadqiqotning asosiy empirik metodlaridan biri boʻlib, psixik hodisalarni maqsadga muvofiq va tizimli ravishda idrok etishga asoslangandir.

Kuzatish — tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib maxsus tashkil etilgan idrok jarayonidir. Kuzatish quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Kuzatishdan oldin uning maqsadi aniq belgilanishi kerak: bola psixikasi, xulq-atvori va faoliyatining qaysi tomonlari kuzatilishini aniqlashtirish lozim.

2. Kuzatish obyektiv boʻlishi kerak: kuzatishda faqat u yoki bu holat, hodisani qayd etish, uni subyektiv talqin etishga oʻtmaslik lozim.

3. Kuzatish muntazam, katta vaqt oraliqlarisiz o‘tkazilishi kerak.

4. Kuzatish shunday o‘tkazilishi kerakki, bola uning kuzatilayotganini bilmasligi lozim. Kuzatishni amalga oshirayotgan tadqiqotchi kuzatilayotgan hodisalarni tez qayd eta olish mahoratiga ega bolishi zarur. Kuzatishning quyidagi turlari mavjud:

- a) ichki kuzatish, tashqi kuzatish va kiritilgan kuzatish;
- b) standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan kuzatish;
- c) frontal va tanlanma kuzatish.

Kuzatish metodining asosiy kamchiligi shundaki, unda kuzatilayotgan hodisalarga faol ta’sir ko‘rsatish, ularni o‘zgartirish, kuzatish amalga oshirilgan vaziyatni xuddi shunday ko‘rinishda qaytadan yaratish imkonsizdir. Shunga qaramay bu metod haligacha asosiy psixologik metodlardan biri bo‘lib kelmoqda.

Eksperiment — ilmiy bilishning asosiy metodlaridan biri. Uning kuzatishdan asosiy farqi shundaki, unda tadqiqotchi o‘rganilayotgan vaziyatga faol ta’sir ko‘rsatadi, bir yoki bir necha o‘zgaruvchilar bilan manipulyatsiyani amalga oshiradi. Eksperimentda psixik xususiyatlar maxsus sharoitlarda o‘rganiladi. Eksperimentning ikki turi farqlanadi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment. Laboratoriya eksperimenti maxsus jihozlangan joylarda, qattiq nazorat ostida amalga oshiriladi. Tabiiy eksperiment chog‘ida esa sinaluvchi eksperiment obykti ekanini bilmaydi. Bu holat laboratoriya eksperimentida vujudga keladigan emotsional zo‘riqish, tadqiqot natijalarini o‘zgartirib yuborishga intilish kabi sinaluvchiga xos xususiyatlarni bartaraf etish imkonini beradi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolaning xotirasini o‘rganish uchun uni alohida xonaga olib chiqib, shu yerda unga bir qator so‘zlarni o‘qib berib, so‘ngra qaytarishni talab qilish mumkin. Ammo mazkur sharoit bola uchun odatiy emas. Shuning uchun bolaning ichki emotsional zo‘riqishi (xavotirga tushishi, shubhalana boshlashi va hokazo) unga topshiriqni imkoniyatlari darajasida boshlashi uchun yo‘l qo‘ymaydi. Demak, eksperimentdan olingan natijalarni haqqoniy deb bo‘lmaydi. Bordi-yu, bola bilan o‘yin o‘ynab, unga xaridor rolini berib aytilgan narsalarni “do‘kondan” xarid qilish vazifasi topshirilgan bo‘lsa, u

olib kelgan narsalariga qarab nimani eslab qolganini, nimani unutganini aniqlash qiyin emas. Demak, shunday shaklda tabiiy eksperiment natijalari ancha haqqoniy bo‘ladi. Eksperimental tadqiqotni tashkil etish va amalga oshirishda bir qator talablarga rioya qilish kerak. Ushbu talablar G.U.Uruntayeva va Yu.A.Afonkina tomonidan tizimlashtirilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Rejalashtirish bosqichida tadqiqot maqsadini, sinaluvchilar tarkibini aniq belgilash, eksperimentda ishlatiladigan usullar, eksperimentni o‘tkazish sharoitini (joy va vaqtini) aniqlashtirish, barcha sharoitlarni oldindan yaratib qo‘yish zarur.

2. Eksperimentni o‘tkazish jarayonida tadqiqotda ishtirok etayotgan bola bilan o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatni o‘rnatish, muloqotga do‘stona, iliq ohang baxsh etish, bolani o‘z oldiga o‘tqazish, bolaning xatolariga ortiqcha e‘tibor bermaslik, sinov sur‘atlarini bolaning individual—psixologik xususiyatlariga moslashtirish zarur. Bola bilan o‘tkazilayotgan eksperiment uzoq davom etmasligi, unga eksperiment jarayonida o‘zgarishlar kiritmaslik kerak. Odatda eksperimentda tadqiqotchidan tashqari eksperiment bayonnomasini to‘ldiruvchi shaxs ham ishtirok etadi. Eksperimentning yana ikki turi-aniqlovchi eksperiment va shakllantiruvchi eksperiment ham farqlanadi. Aniqlovchi eksperimentda bola psixik taraqqiyotiga xos muayyan xususiyatlar qayd etiladi. Masalan, ota-onalar o‘rtasidagi nizolarning bola emotsional holatiga ta’sirini aniqlash mumkin. Buning uchun nizoli oilada voyaga yetayotgan bolalarni aniqlash va ularning emotsional holatini o‘rganish hamda olingan natijalarni boshqa bolalarning natijalari bilan solishtirish kerak bo‘ladi. Solishtirish natijalari -ota-onalarning o‘zaro nizosi va bola emotsional rivojlanishi o‘rtasida aloqadorlik mavjudligini ta’kidlaydi. Shakllantiruvchi eksperimentda sinaluvchiga faol ta’sir ko‘rsatilishi oqibatida unda ro‘y beradigan o‘zgarishlar aniqlanadi. Masalan, ota-ona o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishi bola emotsional holatga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash mumkin. Buning uchun ota-onasi o‘rtasidagi munosabat yaxshilangan bolalar emotsional sohasiga xos xususiyatlar bilan ota-onasi o‘rtasidagi munosabat nizoli bo‘lib qolayotgan bolalar emotsional xususiyatlarini o‘zaro solishtirish yoki bolaning avvalgi emotsional xususiyatlari bilan keyingilarini o‘zaro qiyoslash

kerak. Shuningdek, ayrim hollarda nazorat eksperimenti ham farqlanadi. Bu eksperiment ko'p jihatdan aniqlovchi eksperimentga o'xshab ketadi. Uni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad faol ta'sir ko'rsatilgan guruhdagi o'zgarishlarda aynan ta'sirning roli qanday bo'lganini aniqlashdan iborat. Buning uchun faol ta'sir ko'rsatilgan guruh bilan hech qanday ta'sir ko'rsatilmagan nazorat guruhining natijalari o'zaro solishtiriladi. Agar o'rtadagi farq ancha sezilarli bo'lsa, demak, birinchi guruhdagi o'zgarishlarga aynan o'tkazilgan ta'sir sabab bo'lgan degan xulosaga kelinadi.

So'rov (suhbat) —tadqiqotchi va respondentning bevosita yoki bilvosita o'zaro muloqoti davomida birlamchi verbal axborot yig'ishga yo'naltirilgan metod. So'rov anketa yoki intervyu shaklida o'tkazilishi mumkin.

Anketa yordamida so'rov o'tkazilganda sinaluvchi yozma savollarga, intervyuda esa og'zaki savollarga javob qaytaradi. So'rov quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. "Epigraf". Bunda sinaluvchining fikrlari muayyan yo'nalishga solinadi, sinaluvchilar savollarga javob berishga undaladi.

2. "Ko'rsatma". Bunda sinaluvchiga so'rov jarayonida savollarga qanday javob qaytarish, undan olingan ma'lumotlar nima maqsadda ishlatilishi haqida ma'lumot beriladi.

3. "So'rovga moslashish". Bunda sinaluvchi savollarga javob berishga yo'naltiriladi, unda o'ziga nisbatan ishonch hosil qilinadi, u bilan o'zaro ishonchga asoslangan munosabat o'rnatiladi, unda savollarga o'zing xohlaganday javob qaytarish mumkin, degan taassurot hosil qilinadi. Buning uchun so'rovda dastlab emotsional-neytral, oson, umumiy savollar beriladi.

4. "Maqsadga erishish". Bunda zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlar qoidaga kiritiladi. Buning uchun ushbu bosqichda tadqiqotchi uchun ham, sinaluvchi uchun ham muhim bo'lgan savollar beriladi.

5. "Zo'riqishni bartaraf etish". Bunda so'rovdagi masalalar va savollar xususida, butun so'rov jarayoni haqida yig'ilgan hissiyotlar bartaraf etiladi. Buning uchun so'rov so'ngida nisbatan oson, ijobiy emotsional savollar berilishi, masalan,

sinaluvchining ijtimoiy demografik xususiyatlari haqidagi savollar berilishi mumkin. Sinaluvchiga beriladigan savollar bir-biridan alohida va ajralgan emas. Ular yaxlit bir zanjirning halqalaridir. So‘rovdagi bir savol keyingisi bilan bog‘liq holda idrok etiladi. Shu tufayli quyidagi holatlarga so‘rov jarayonida alohida e‘tibor berish lozim:

1. Bir savol va unga beriladigan javob keyingi savollarga beriladigan javoblarga ta‘sir o‘tkazmasligi kerak.

2. Muayyan savoldan keyingi savol umuman boshqa mavzularga o‘tib ketgan bo‘lmasligi, bir savoldan boshqasiga o‘tishda mavzu keskin o‘zgartirilmasligi lozim.

3. Savollarning tashqi ifodalanishi sinaluvchilarni u bilan ishlashga jalb etishi kerak (simmetrik to‘g‘ri bo‘lishi, yozuv yoki og‘zaki murojaat orqali beriladigan savollar chiroyli va tushunarli bo‘lishi zarur).

4. Sinaluvchilarning individual xususiyatlari va so‘rovning uzunligi bir-biriga mos bo‘lishi (masalan, ota-onalar bilan so‘rov o‘tkazishda 5-6 savoldan iborat kichik anketalardan foydalanish) zarur.

5. So‘rov so‘ngida sinaluvchiga minnatdorchilik va tashakkur izhor etilishi — “Javoblaringiz uchun tashakkur”, “Yordamingiz uchun rahmat” kabi ifodalarning keltirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Proektiv metodlar. Proektiv metod — shaxsni o‘rganish metodlaridan biri. Unda shunday eksperimental vaziyatlar yaratiladiki, bu vaziyatlar sinaluvchilar tomonidan talqin etilishi mumkin bo‘ladi. Aynan sinaluvchining bergan talqinini tahlil etish orqali uning shaxsi haqida muayyan xulosalar chiqariladi. Chunki muayyan eksperimental vaziyatni talqin etar ekan proyeksiya mexanizmi tufayli sinaluvchi o‘z ichki kechinmalari, o‘y-xayollari, orzulari, qo‘rquv va xavotirlarini tashqariga chiqaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaganda qo‘llaniladigan odatdagi proektiv metodikalar quyidagilardan iborat: “Bola appertseptsiya testi”, “Oilaviy ustanovkalarining Jekson testi”, “Dyuss ertaklar metodikasi” va hokazolar. Ushbu metodikalarni qo‘llash asosan individual ish jarayonida amalga oshirilib, ancha ko‘p vaqt talab etadi. Proektiv metod asosida

o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini talqin etishda tadqiqotchidan katta mahorat talab qilinadi.

Faoliyat mahsulini o‘rganish metodi. Faoliyat mahsulini o‘rganish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘rganish haqida gap ketganda, birinchi navbatda, bolalarning tasviriy faoliyati mahsullarini tahlil qilish nazarda tutiladi. Shu tufayli tasviriy faoliyat mahsullarini o‘rganishga asoslangan metodlar o‘z nomi bilan grafik metodlar deb ataladi. Grafik metodlar o‘z ichiga rasm chizish metodikalari — “Odamni chizgin” , “Avtoportret”, “Erkin mavzudagi surati”, “Dunyo surati”, “Oila rasmi” , “Oilaning kinetik surati” , “ Uy, daraxt, odam ” —“Geometrik shakllardan odam rasmini yig‘ish”, “Daraxt” grafik testi, “Grafik diktant” va boshqalarni oladi. Yuqorida tilga olingan metodik vositalar adabiyotlarda batafsil tahlil etilgan.

Test — shaxsga xos muayyan psixologik sifatning rivojlanish darajasini o‘lchash uchun xizmat qiladigan topshiriqlar yig‘indisi. Test metodida muayyan standart topshiriq va vaziyatlar (testlar) qo‘llaniladi. Ushbu metod bir qator ustun tomonlarga ega: tadqiqotni sinaluvchilarning katta guruhi bilan o‘tkazish mumkin; natijalarni hisoblash va qayta ishlash ancha yengil va sodda. Metodning asosiy kamchiligi shundaki, u bolaning kelajakdagi rivojlanishi haqida ma’lumot berolmaydi. Psixologiya fanida hozirda maktabgacha yoshdagi bola shaxsiga xos xususiyatlar, uning emotsional-irodaviy sohasiga xos sifatlar, motivatsion sohasiga tegishli xususiyatlar, individual-tipologik xususiyatlar, bolaning bilish jarayonlariga xos xususiyatlarni aniqlaydigan maxsus test to‘plamlari mavjud.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Bolalar psixologiyasi maqsad va vazifalarini gapirib bering.
2. Bolalar psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi?
3. Bolalar psixologiyasining tadqiqot metodlari?
4. “Test” so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
5. Proektiv metod haqida tushuncha bering?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nishanova Z, Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
2. Мухина В.С. Детская психология. Учебник для студентов пед. институтов./ Под ред. Л.А.Венгера. – 2-е изд.,– М.: Просвещение, 1985. – 272 с.
3. Смирнова Е.О. Детская психология: Учебник для студентов.–М.: Гуманитар. Изд. Центр VLADOS, 2008. – 366 с.ISBN 978-5-691-00893-1
4. Уринтаева Г.А. Детская психология. Учебник для студентов / – М.: Изд. Центр “Akademiya”, 2013. – 336 с. ISBN 978-5-7695-9674-2

**2-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi
Nazariy mashg‘ulotning ta’lim texnologiyasi.**

O‘quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli:	Nazariy mashg‘ulot
Ma’ruza rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kichik yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti va yosh bosqichlari. 2. Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti va ta’lim
<ul style="list-style-type: none"> • O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: 	<p>Nazariy mashg‘ulotning maqsadi tinglovchilarga maktabgacha ta’lim tashkilotlari jismoniy tarbiya yo‘riqchilarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini davlat talablari asosida chuqurlashtirish, yangilash va ta’lim-tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga oid nazariy — metodologik asoslari bilan qurollantirish, bolaning maktabga psixologik yetuklik jihatlari kabi masalalari to‘g‘risidagi bilimlar tizimidan foydalanish imkonini beradigan zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha nazariy bilimlarni shakllantirish</p>
<ul style="list-style-type: none"> • Pedagogik vazifalar: <p>– tinglovchilar zamonaviy psixologik metodikani o‘z amaliy faoliyatlarida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;</p> <p>– o‘z kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadida tinglovchilar shaxsiy ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalari haqida tasavvurlar hosil qilishga o‘rgatish;</p>	<p>O‘quv natijalari:</p> <p>Nazariy mashg‘ulotdan so‘ng tinglovchilar bilishi lozim:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ta’lim-tarbiyada differensial yondashuv jarayonida bolalarning biologik va ijtimoiy rivojlanish omillarining roli; 2. Xarakterdagi individual farqlar; 3. Bolaning maktabga yetuklik jihatlarining psixologik xususiyatlarini; 4. Bolalarni ta’lim jarayoniga aqliy va ijtimoiy-psixologik tayyorlashning psixologik tomonlarini <i>bilishi</i> kerak.
<ul style="list-style-type: none"> • Ta’lim metodlari: 	<ul style="list-style-type: none"> • Ma’ruza, suhbat, munozara, tezkor so‘rov.
<ul style="list-style-type: none"> • Ta’lim vositalari: 	<ul style="list-style-type: none"> • Ma’ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, videoproyektor, prezentatsiyalar.
<ul style="list-style-type: none"> • Ta’lim shakli: 	<ul style="list-style-type: none"> • Frontal, guruhlarda ishlash.
<ul style="list-style-type: none"> • O‘qitish shart-sharoitlari: 	<ul style="list-style-type: none"> • Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
<ul style="list-style-type: none"> • Monitoring va baholash. 	<ul style="list-style-type: none"> • Nazorat savollari.

2-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI.

Reja

- 2.1. Kichik yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti va yosh bosqichlari.
- 2.2. Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti va ta'lim.

Tayanch iboralar: kichik yosh davri, individual-psixologik xususiyatlar, hissiy-ifodaviy holatlar, bilish jarayonlari, maktabga tayyorlov yoshi.

2.1. KICHIK YOSHDAGI BOLALARNING PSIXIK TARAQQIYOTI VA YOSH BOSQICHLARI.

Bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlari. Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda uch davrga:

- (3-4 yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha yoshi),
- (4-5 yosh) o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha yoshi) ,
- (6-7 yosh) katta maktabgacha davr (katta bog'cha yoshi)ga

ajratish mumkin.

Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bolalar psixikasining taraqqiyotini ilmiy kuzatishga dastlab mashhur tabiatshunoslardan Charl'z Darvin yo'l ochdi. Charl'z Darvin bola psixikasining taraqqiyotini kuzatishga doir o'zining kundalik xotira tipidagi asarini nashr etgan edi. Ong uzoq evolyutsion taraqqiyot natijasi sifatida faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy-tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishi hamda til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatda bo'lishi natijasidir. Demak, ongning birinchi tavsifi uning turli bilimlar yig'indisidan iborat ekanligidir. Ongning ikkinchi tavsifi odamning o'z-o'zini anglash jarayonida namoyon bo'ladi. Odam tirik mavjudotlar tarixida birinchi bo'lib obyektiv olamdan ajralib chiqdi va o'zini tevarak-atrofdagi muhitga qarama-qarshi qilib qo'ydi. Ma'lumki, odam har doim biror bir faoliyatda bo'ladi. Har qanday faoliyatning esa o'z maqsadi va motivlari bo'ladi. Faoliyatga

kirishishdan oldin maqsad va motivlarni belgilash ongning uchinchi tavsifi hisoblanadi. Bolalar psixologiyasi turli yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyot qonuniyatlarini ilmiy ravishda ochib berishi kerak.

Bolalar psixologiyasi I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti asosida turli yoshdagi bolalar psixik jarayonlari va xususiyatlarining nerv-fiziologik asoslarini o'rganishi kerak. Ana shu asosiy vazifalari bilan bir qatorda bolalar psixologiyasi yana bir necha muhim masalalar bilan xam shug'ullanadi. Masalan, bolalar psixologiyasi-bolalar psixik taraqqiyotiga aktiv ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab beradi. Bolalar psixologiyasi bu vazifalarni hal qilar ekan, buning bilan u tarbiyachilarning va ota-onalarning ta'lim-tarbiya yuzasidan olib boradigan ishlarini ilmiy asosda tashkil qilishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishi. Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin:

- birinchi davr — bu 3-4 yosh oraliq'ida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir;
- ikkinchi davr — bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z-o'zini boshqarish;
- uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manba sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari — bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog'liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan

motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davridan boshlanib, yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o'rnida paydo bo'ladi. O'zini namoyon qilish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu motiv, asosan, bolalarning syujetli-rolli o'yinlarida asosiy rolni egallashga, boshqalar ustidan rahbarlik qilishga intilishda, musobaqaga kirishishga, nima bo'lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baho juda muhim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin hisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e'tiborli, mehribon bo'lish xususiyati ham shakllanadi. Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar. 3-3,5 yoshlar oralig'ida bolalar o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan, ularning o'zlariga beradigan yuqori baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o'zlari haqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O'z-o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo'lganini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan «Men kichkina paytimda qanday bo'lgan edim?», «Men katta bo'lganimda qanday bo'laman?» singari savollarida ko'rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlariga ega bo'lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o'rta bog'cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi.

Shu yillardan boshlab, bolada ahamiyatli hisoblangan — iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog‘cha yoshida bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishga o‘rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo‘yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o‘rnata olishida foyda keltiradi. Bolaning atrofidagi kishilar bilan bo‘lgan munosabatlari, asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o‘zgarishlari, ularning o‘z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o‘zini-o‘zi anglashi kabi hislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o‘yin faoliyatlarida o‘sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar bog‘cha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo‘lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo‘lmas edi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning xayollari turli xil mashg‘ulotlarda ham o‘sadi. Masalan, bog‘cha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o‘ynashni va rasm solishni yaxshi ko‘radilar, ana shunday mashg‘ulotlar bolalar xayolining o‘shishiga faol ta’sir qiladi. Bog‘cha yoshidagi bolalar xayolining o‘shishiga faol ta’sir qiluvchi omillardan yana biri — ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma’lum munosabatlari yuzaga keladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg‘ular g‘oyat kuchli va juda tez namoyon bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg‘ulari ko‘p jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasligi bilan bog‘liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg‘ularini qo‘zg‘aydi. Katta bog‘cha yoshidagi bolalarning burch hissi — «nima yaxshi-yu», «nima yomon»ligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog‘liqlik bor.

Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuygʻulari paydo boʻlsa, biron tartib qoidani buzib qoʻyganlarida xafalik, taʼbi xiralik hissi tugʻiladi. Shuningdek, bogʻcha yoshidagi bolalarda maʼnaviy hissiyotlardan oʻrtoqlik, doʻstlik va jamoatchilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bogʻcha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez oʻsadi. Bogʻcha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon boʻlishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol koʻrish mumkin.

Maktabgacha yoshidagi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanishi.

Bogʻcha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan oʻyinchoqlar, rangli kiyimlar, rangli xalqlar, qutichalar va shu singari oʻyinchoqlar berish maqsadga muvofiqdir. Bogʻcha yoshidagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ularning koʻzga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydilar. Bogʻcha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni analitik (grek tilidan olingan boʻlib — "analytikos", yaʼni "tahlil qilish qobiliyatiga ega boʻlish" degan maʼnolarni anglatadi) ravishda idrok qilish qobiliyatiga ega boʻladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga oʻrgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini (syujetini) toʻgʻri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy koʻrinishida har bir tasvirlangan narsalarning oʻrnini toʻgʻri idrok qilishga;
3. Tasvirlangan narsalar oʻrtasidagi munosabatlarni toʻgʻri idrok qilishga qaratish kerak.

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yoʻldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bogʻcha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz boʻladi. Bogʻcha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning oʻsib borishi uchun oʻyin juda katta ahamiyatga ega. Oʻyin paytida

bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'rgazmali, obrazli bo'lishi bilan xarakterlidir. Bolada ko'proq ixtiyorsiz esda qoldirish va ixtiyorsiz esga tushirish ustunlik qiladi. Bola so'zlarni hech qanday ma'nosiz takrorlayveradi. Ammo keyinchalik, kattalarning ta'sirida, ixtiyoriy esda qoldirish ham asta-sekin rivojlana boradi. Bola ravshan va emotsional rang-barang materialni oson esda qoldiradi. Uch yashar bola taassurotlarini bir necha oy davomida esda saqlab tura olishga qodirdir. Xotiraning o'sishiga o'yinlar, turli mashg'ulotlar, she'r yodlash, ertak va hikoyalar aytish hamda sayr paytida kuzatish ishlarini olib borish yordam beradi. Ushbu yoshdagi bolalar yangi so'zlarni ham, hatto chet tillardagi so'zlarni ham osongina eslab qoladilar. Lekin, bolalar materialni oson esda qoldirsalar ham, ular ko'pining ma'nosiga yaxshi tushunmaydilar va ulardan nutqda foydalanishga qiynaladilar. Kattalarning vazifasi bolalarning mumkin qadar ko'proq so'zlarni va tasavvurlarni eslab qolishigagina emas, balki ular uchun tushunarli, foydali bo'lgan turli bilimlarni egallashiga erishishdan iborat. Bolalar bu xildagi bilimlardan o'z o'yinlarida, rasmlarida, ustozlari yoki kattalar bilan suhbatda foydalanadilar, bu bilimlar ularning aqliy va axloqiy o'sishlari uchun xizmat qiladi. Bog'chagacha bo'lgan yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunligicha qolaveradi. Masalan, bola juda berilib ertak eshitayotgan bo'lsa ham, xonaga birov kirib qolsa, uning diqqati ixtiyorsiz shu ertakdan chalg'iydi. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar. Bog'cha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish

imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi, ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik so'na boshlaydi.

Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi. Ko'pgina otalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, «ko'p mahmadona bo'lma», «sen bunday gaplarni qayerdan o'rganding», deb koyib beradilar. Natijada bola o'ksinib, o'z bilganicha tushunishga harakat qiladi. Ayrim tortinchoq bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli mashg'ulotlar va sayohatlarda kattalarning o'zlari ham savol berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari lozim.

Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko'rishga intiladilar.

Agar 2 yashar bolaning so'z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo'lsa, 3 yashar bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so'z zaxirasi 4000 taga etadi. Demak, bog'cha yoshi davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqining o'sishi oilaning madaniy saviyasiga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Kattalar bolalar nutqini o'stirish bilan shug'ullanar ekanlar, bog'cha yoshidagi bolalarning ba'zi hollarda o'z nutq sifatlarini to'la idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farq qilish qobiliyati ham hali to'la takomillashmagan bo'ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to'la va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xos individual psixologik xususiyatlar.

Temperament – bu asab tizimining tug‘ma, tabiat tomonidan tuhfa etilgan individual shaxsiy xususiyatlar to‘plami hisoblanadi. Tabiat tomonidan berilgan bu shaxsiy xususiyatlar bolaning qanchalik faolligini, uning atrofidagi hayotga qanday munosabatda bo‘lishini, uning faoliyati qanchalik intensiv bo‘lishini belgilaydi. Temperamentlar yomon va yaxshi turga bo‘linmaydi, aksincha har bir temperamentning o‘ziga xos ijobiy tomonlari mavjud.

Temperamentning to‘rtta asosiy turi mavjud: xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik. Ularning har biri o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga va ularning kombinatsiyasiga ega. Tevarak — atrofimizdagi hayot faktlari va hodisalarga bir xil odamlar tez va yengillik bilan, bir xillari shoshmasdan va qiyinchilik bilan, boshqalari esa sust va befarq bo‘ladilar, yana bir xillari keskin va g‘ayratli, ayrimlari esa bir xil maromda va mulohazali bo‘ladilar. Temperament va xarakter odamning ijtimoiy munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladigan individual xususiyatlardir. Temperament — lotincha “aralashma” yoki qismlarning nisbati, degan ma’noni bildiradi. Temperament — shaxsning hissiy qo‘zg‘aluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual xususiyatlar yig‘indisi. Temperament — inson faoliyatida uning asab tizimi tipining namoyon bo‘lishi. Temperament his -tuyg‘ularning paydo bo‘lish tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo‘ladigan individual — psixologik xususiyatlarining majmuidir. Temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlarning asosiy belgilari:

1) temperamentning ayni bir xil xususiyatlari, xuddi bir odamning o‘zida faoliyatning har xil turlarida va har turli maqsadlarda namoyon bo‘ladi;

2) temperamentning xususiyatlari odam hayotining butun davomida va ma’lum bir qismida barqaror va o‘zgarmasdir;

3) mazkur odamdagi temperamentning turli xususiyatlari bir — biri bilan tasodifiy birlashgan bo‘lmay, balki bir — biri bilan qonuniy bog‘langan bo‘lib, bu xususiyatlar temperament tiplarini ifodalovchi muhim tuzilmani hosil qiladi.

Temperamentning xususiyatlari deganda, bir inson psixik faoliyati tezligini belgilovchi psixikaning barqaror individual xususiyatlarini tushunamiz. Bu

xususiyatlar turli mazmundagi faoliyatlarda, motivlarda va maqsadlarda nisbatan o'zgarmaydi, hamda temperament tipini ifodalovchi tuzilmani tashkil qiladi.



Xolerik temperamentli bola: U juda jahldor, o'ziga ishongan va shijoatli, bir zumda qaror qabul qiladi, shuning uchun uning g'oyalari o'ylab topilmagan, lekin juda qiziq. U har doim nima istayotganini biladi. Xolerik bola juda harakatchan, uzoq

kutishga toqat qilmaydi, kayfiyati keskin o'zgaradi. Uning yangi muhitda o'zini qanday tutishini oldindan aytish qiyin – reaksiya kutilmagan bo'lishi mumkin. Uning xatti-harakati dovulga o'xshaydi. Xolerik bola – bu daxshatli qichqiruvchi va bahschi bo'ladi. U qat'iyatli, qo'rqmas, oxirgi daqiqada o'z fikrini butunlay teskarisiga o'zgartira oladi, tavakkalchi va sarguzashtni yaxshi ko'radi.

Tavsiyalar: Xolerik bola faolligini cheklamang. To'polon qilgan paytda unga tanbeh bermang va jim o'tirishga majburlamang. Bola buni qila olmaydi! Yaxshisi energiyasini sarflashning boshqa yo'llarini sinab ko'ring. Masalan, bola bilan harakatli o'yinlar o'ynang. Unga sport mashqlarini, suzishni, raqsga tushishni, velosipedda uchishni o'rgating. U bilan tez-tez ko'chaga chiqishga harakat qiling. Bolaga qahramonlik va jasorat haqida kitoblarni o'qib bering. Unga nafaqat o'zi gapirishi, balki boshqa bolalarni ham tinglash muhim bo'lganida, tengdoshlari bilan muzokara qilishni o'rgating. Xolerik bolalar har doim birinchi bo'lishga intiladi. Eng muhimi, sabrli bo'ling va xolerik bolaning o'zi o'zini qanday boshqarishni o'rganishdan xursand bo'lishini tushunishga harakat qiling, lekin bu har doim ham natija bermasligi mumkin. Bunda unga yordam bering!



Sangvinik temperamentli bola: Sangvinik bolakay quvnoq, kuchli va muvozanatli, bundan tashqari u "quyosh" kabi ko'pincha yaxshi kayfiyatda, izlanuvchan, faol. Sangvinik bolani juda tez kuldirish yoki

biron bir arzimas narsadan qattiq xafa qilib qo‘yish mumkin. Bunday bolaning ko‘z yoshlari tezda paydo bo‘ladi va juda tez yo‘qolib qoladi, chunki u juda aqlli bo‘lib, har doim o‘zini ovutish uchun qiziqarli mashg‘ulot topadi. Odamlar bilan osongina kirisha oladi, tezda yangi muhitga va yangi talablarga moslashadi. Sangvinik bolalar boshqa odamlarni osongina tushunadilar, boshqalarga nisbatan talabchan emaslar va odamlarni boricha qabul qilishga moyildirlar. Ular hokimiyat uchun kurashmaydi, lekin ko‘pincha kompaniyada yetakchi o‘rinni egallaydi. Sangvinik bolalar: “Kim bilan do‘stsiz?” – savoliga odatda: “Hammasi bilan” – deya javob beradi. Bunday bolalar qiziqarsiz o‘yin yoki ishni yoqtirishmaydi va uni oxiriga yetkazmasdan tashlab ketishlari ham mumkin. Qiziqarsiz ish ularni zeriktiradi va ular imkon qadar tezroq qutulishga harakat qilishadi. Sangvinik bolalar o‘zgaruvchan va bir hillikdan tez charchaganligi sababli, mashg‘ulotlar davomida asosiy urg‘uni bajarilayotgan ishni oxirigacha yetkazishga qaratishga harakat qiling. Diqqatni jamlaydigan konstruktorlar, jumboqlar va boshqa o‘yinlar xotirjamlik va aniqlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Tavsiyalar: bunday bolalarning qat’iyatligini va mehnatsevarligi rag‘batlantirish orqali barqarorlik va samaradorlikka erishish uchun talablarni bosqichma-bosqich oshirish juda muhimdir. Bolani beparvolik, e’tiborsizlik uchun ta’na qilmaslikka harakat qiling. Yaxshisi ishini mukammal qilib bajargan bo‘lsa, yoki barcha o‘yinchoqlarni yig‘ib qo‘ygan bo‘lsa, bolani ko‘klarga ko‘tarib maqtash tavsiya etiladi. Bola bilan uning tengdoshlari va yaqinlari bilan munosabatlarini muhokama qiling. Bolangiz sangvinik, uni beqarorligi uchun ayblamang – bu uning aybi emas, balki temperamentning o‘ziga xos xususiyati. Unga fe‘l-atvorini tuzatishga yordam bering, shunda u ishonchli, stressga chidamli, ochiq ko‘ngil va muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib ulg‘ayadi.



Flegmatik temperamentli bola: Kichkina flegmatik hamma narsada tartibni yaxshi ko‘radi. U kiyim va o‘yinchoqlarni ehtiyotkorlik bilan yig‘adi, faqat o‘z

idishidan ovqatlanadi, tengdoshlar orasida faqat o'z o'yinchog'i bilan o'ynaydi.

Flegmatik bola – juda og'ir. Uni kuldirish yoki xafa qilish qiyin. Hatto janjal paytida ham bunday bola xotirjam bo'lib qoladi. U e'tiborini deyarli o'zgartirmaydi va notanish muhitga ko'nikishi uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi. Uning nutqi sekin va pauzalarga boy. U yangi narsalarni o'rganishni yoqtirmaydi. Flegmatik bola ko'p fantaziya qilmaydi, xotirjam o'ynaydi, faqat bir nechta o'yinchoqlarni yaxshi ko'radi. Bolalar bilan o'ynaganda, u tanish o'yinlarni afzal ko'radi. U bir ishni juda uzoq bajaradi, ammo kamdan-kam xato qiladi. Yetakchilikka intilmaydi, qaror qabul qilishni yoqtirmaydi, bu huquqni boshqalarga osonlik bilan beradi. U kamdan-kam xafa bo'ladi, lekin agar uning ko'ngli og'risa, munosabatlarini abadiy uzishi mumkin. U juda tashabbuskor bo'lib shakllanishi mumkin. Flegmatik bola noqulay sharoitlarda ham muammosiz va samarali ishlashi mumkin va muvaffaqiyasizliklar uni bezovta qilmaydi. Flegmatik bolaga nima yoqmaydi? Ota-onalarning qichqiriq va janjal bilan vazifani bajarish jarayonini tezlashtirishga harakat qilishlari.

Tavsiyalar: shoshilmang, shoshiltirmang, bolani tezlatmang. Sizing talablariniz bolaning individual tezligiga mos kelishini nazorat qiling. Musiqa bilan shug'ullanish, rasm chizish, aplikatsiya orqali bolaning tasavvurini, fantaziyasini rivojlantirishga harakat qiling. Farzandingiz bilan harakat tezligini o'zgartirishni o'z ichiga olgan o'yinlarni o'ynang. Masalan, yurish – yugurish – sekin yurish; ritm o'zgarishi bilan qarsak chaling. Farzandingizni ochiq havodagi o'yinlarga ko'proq jalb qilishga harakat qiling, u bilan birga sayrga chiqing. Unga qo'shniga kalitni olib borish, sotuvchiga pul berish, notanish bolaning ismini so'rash kabi topshiriqlar bering. Bolaning harakatsizligi dangasalikka aylanmasligi uchun sharoit yaratish kerak. Farzandingizni tezkorligi va topqirligi uchun maqtang. Va, eng muhimi, shuni yodda tutish kerakki, agar siz doimo g'azablansangiz va bolani jazolasangiz, bolada harakat qilish qo'rquvi paydo bo'lishi va o'ziga pastlik tuyg'usi rivojlanishi mumkin.



Melanxolik temperamentli bola:

Melanxolik bola nafaqat jim, balki mehribon, yumshoq, ishonchli va ochiq fe'l-atvor egasidir. U juda ta'sirchan, salga xafa

bo'ladigan, hamma narsada ehtiyotkor. Melanxolik o'ziga ishonchsiz, uning o'zi qaror qabul qilishi juda qiyin. Melanxoliklar notanish muhitda o'zini yo'qotadi va o'zini-o'zi boshqara olmaydi. Eng kichik noqulayliklar ham ularni muvozanatdan chiqarishi mumkin. Bunday bolalar faqat o'zlari sevgan, o'zlarini qulay va xavfsiz his qiladigan odamlar bilan erkin bo'lishadi. Shuning uchun oilada melanxolik bolaning to'liq ishonadigan odami bo'lishi kerak. Bundan tashqari bunday bolaga nafaqat ishonch, balki mehr, iliqlik va e'tibor ham kerak. Melanxolik bola begonalardan ehtiyot bo'ladi, begonalar bilan gaplashishni yoki o'ynashni xohlamaydi. Bunday bolalar juda past ovozda gapiradilar, kamdan-kam bahslashadilar, ko'pincha kuchli tengdoshlarining fikriga bo'ysunadilar. Bunday temperamentga ega bolalar tezda charchashadi, qiyinchiliklarga duch kelsalar, adashadi yoki tezda taslim bo'lishadi. Melanxolikning ichki dunyosi nihoyatda boy, u his-tuyg'ularning chuqurligi va barqarorligi bilan ajralib turadi. Bolalar – melanxoliklar o'zlarini “kichkina kattalar” kabi tutadilar – ular juda oqilona, ular hamma narsaga izoh topishni yaxshi ko'radilar va yolg'izlikni yaxshi ko'radilar. Melanxoliklar o'zlariga va boshqalarga yuqori talablar qo'yadilar.

Tavsiyalar: Kichkina melanxoliklar bilan tezlik, epchillik va tezlik uchun raqobat o'yinlarini o'ynamaslik tavsiya etiladi. Yaxshisi bolakay bilan chizish, aplikatsiya bilan shug'ullanish yaxshiroqdir. Bundan tashqari, velosiped haydashni, to'pni o'ynashni yoki arqondan sakrashni o'rgatishingiz mumkin. Bunday bolalar juda ta'sirchan bo'lganligi sababli, ularning kamchiliklarini yuziga solmang. Uning o'ziga bo'lgan ishonchini saqlashga harakat qiling. Melanxolik bolada faollik istagini, qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini rivojlantirish kerak. Bolaga uyatchanligi ustidan kichik g'alabalarni qo'lga kiritishiga yordam bering. Farzandingizga mustaqillik bering, qaror qabul qilishga shoshilmang. Ertak o'qib berganingizdan so'ng yoki multfilm tomosha qilganingizdan so'ng, farzandingiz

bilan uning his-tuygʻulari haqida gaplashishga harakat qiling. Qaysi qahramon unga koʻproq yoqdi va nima uchun? Bolaning tanishlar doirasi asta-sekin kengaytirilishi kerak. U birinchi navbatda bitta tengdoshi bilan oʻynasin. Bola oʻzini qulay sharoitda his qilgandan soʻng, boshqa bolalarni oʻyinga qoʻshish mumkin.



Xarakter haqida tushuncha.

Jamiyat aʼzosi, kishining voqelikka munosabatida vujudga keladigan va uning xulq-atvori hamda harakatlarida taʼsir qoldiradigan muhim, barqaror psixik xususiyatlarning majmui xarakter (yunon. charaktir — belgi, nishon, xislat) deyiladi.

Bolaning individual oʻziga xosligi uning feʼl-atvorida ham namoyon boʻladi, bu bolaning qarashlari, qiziqishlari, fikrlari, ularning mazmuni (u nimani boshqaradi, oʻziga qanday munosabatda boʻladi). Har bir narsaning xulq-atvorining mazmuni insonni xarakterlaydi, chunki har bir shaxsning oʻziga xos ruhiy ombori, xulq-atvori, harakat uslubi va xarakteri mavjud boʻlib, u butun hayoti davomida shakllanadi, muhit va tarbiyaga qarab oʻzgaradi, rivojlanadi.

Belgi (yunoncha xarakter — belgi,) — shaxsning jamiyatga, mehnatga, jamoaga, oʻziga nisbatan xatti-harakati va faoliyatida namoyon boʻladigan muhim xususiyatlarining individual birikmasi. Xarakterning xususiyatlari insonning muayyan maqsadlarga erishish usullaridan, yaʼni uning xatti-harakatlarining oʻziga xos psixologik strategiyasidan dalolat beradi. Voyaga yetgan odamda xatti-harakatlar yuqori asabiy faoliyat va hayotiy tajribaning murakkab birikmasidir. Bu asab tizimining turining bolaning xarakterining rivojlanishiga taʼsiri bilan bogʻliq. Psixologlarning taʼkidlashicha, shaxsning temperamenti uning xususiyatlarini belgilaydigan ajralmas birlikdir. Biroq, temperament (asab tizimining turi) tugʻma asos boʻlib, xarakter hayot davomida shakllanadi. U bir butun sifatida paydo

bo'ladigan ko'plab tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun ham bolaga (kattalarga) xos bo'lgan guruhni uning xarakterining boshqa fazilatlaridan alohida ko'rib chiqish mumkin emas. Xarakter harakatlar va xatti-harakatlarda uchraydigan barcha xususiyatlarning yig'indisi bilan belgilanadi (inson turli sharoitlarda qanday harakat qiladi, o'z maqsadiga qanday erishadi, uning intilishlari qanday). Xarakterning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir: hayotga yo'naltirilganlik (ehtiyotlar, qiziqishlar, e'tiqodlar); aqliy fazilatlar (kuzatish, ehtiyotkorlik, aqlning moslashuvchanligi), hissiy (his-tuyg'ularning mazmuni va yo'nalishi), ixtiyoriy (ifodalilik, doimiylik, qat'iylik, qiyinchiliklarni yengish qobiliyati, qat'iyatlilik, jasorat, maqsadga muvofiqlik) odatlar (deyarli avtomatlashtirilgan harakat usullari). Ularning barchasi bir-biriga bog'langan, ba'zida ma'lum bir komponent xatti-harakatlarda hukmronlik qiladi. Ularning kombinatsiyasi individual xususiyatlarga ega. Hatto bitta odam, hayotning o'ziga xos sharoitlariga qarab, turli xarakterli xususiyatlarni namoyon qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida u muloqot madaniyatining to'g'ri darajasini ko'rsatishi, mojaroni emas, balki do'stona munosabatlarni o'rnatishi va uyda qarama-qarshi xatti-harakatlarni namoyish qilishi mumkin. Bunday namoyishlar uning hayotining turli jabhalariga tegishli bo'lishi mumkin. Bir xil xarakterdagi ikki kishida bir xil xulq-atvor bo'lishi mumkin emas, chunki ular tug'ilishdan boshlab turli xil ta'sirlar ostida bo'ladilar (oilaviy sharoit, ta'lim yo'li, qarindoshlar bilan muloqot, bolalar jamoasi, atrof-muhit va boshqalar). Bularning barchasi moyillik, qiziqish, his-tuyg'ular, aql, iroda, xarakterning individual xususiyatlarini shakllantiradi. Bolaning xarakterini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy rol uni o'rab turgan odamlar bilan muloqotda bo'ladi. Xulq-atvorning birinchi poydevorlari va shakllari meros mexanizmi asosida (bola o'z yaqinlariga taqlid qiladi), shuningdek, hissiy mustahkamlash orqali o'rganish orqali shakllanadi. Xarakterni shakllantirishning sezgir davri ikki yoki uch yoshdan to'qqiz yoki o'n yoshgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalar tashqi ta'sirlarga ochiq, hammaga va hamma narsada taqlid qilishadi. Kattalar bolada shubhasiz obro'ga ega bo'lishi kerak, ular unga so'zlar, xatti-harakatlar va harakatlar yordamida ta'sir

ko'rsatishi mumkin, bu esa xatti-harakatlarning zarur shakllarini o'zlashtirish va mustahkamlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning xarakterini shakllantirish uchun kattalarning bir-biri bilan va chaqaloqning o'zi bilan muloqot qilish uslubi muhim ahamiyatga ega. Bu, birinchi navbatda, ota-onalarning, ayniqsa onalarning bola bilan muloqotiga taalluqlidir. Ularning unga qanday munosabatda bo'lishlari, vaqt o'tishi bilan u katta bo'lib, o'z oilasi bo'lganida, u bolalariga qanday munosabatda bo'lsa, shunday bo'ladi. Birinchidan, xarakterda mehribonlik, xushmuomalalik, sezgirlik, shuningdek, ularga qarama-qarshi bo'lgan fazilatlar — xudbinlik, qo'pollik, odamlarga befarqlik kabi xususiyatlar shakllanadi. Maktabgacha yoshda mehnatga taalluqli xarakter xususiyatlarining asoslari — mehnatsevarlik, aniqlik, mas'uliyat, qat'iyatlilik asoslari qo'yiladi. Ushbu davrda yetakchi faoliyat syujetli rolli o'yin bo'lganligi sababli, unda tegishli odatlar shakllanadi va mustahkamlanadi. Bundan tashqari, bola uchun kattalar tomonidan rag'batlantirilishi va rag'batlantirilishi kerak bo'lgan qulay mehnat turlarini bajarish muhimdir. Qoida tariqasida, doimiy ravishda ijobiy baho oladigan xususiyatlar xarakterda mustahkamlanadi. Xarakterning shakllanishi bolaning hayotdagi faolligiga bog'liq. Bu jarayon erta yoshdan boshlanadi, u beixtiyor kattalardan odamlarga nisbatan muayyan xatti-harakatlar, xatti-harakatlar, munosabatlarga taqlid qiladi, o'z qobiliyatini tushunadi, harakatlarni o'zlashtiradi, o'zini o'zi boshqarishni o'rganadi. Shu bilan birga, shuni esda tutish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolaning xatti-harakati, uning xatti-harakatlari va xatti-harakatlariga yo'naltirilgan, yaqin kattalar qiyofasi vositachiligida, shaxsiy xatti-harakatlar mexanizmlarini shakllantirishni belgilaydi. Tarbiyaning o'ziga xos shartlariga va yaqin kattalar bilan munosabatlariga qarab, bu jarayonda turli xil motivlar yetakchi rol o'ynashi mumkin (faoliyatga bevosita qiziqish, uning mazmuni, ahamiyati, va boshqalar). Har qanday bola individualdir va ota-onalarning asosiy vazifasi bolani biror narsaga majburlash emas, balki bolada uning iste'dodini topish va uni rivojlantirishdir. Bolaning va uning iste'dodining kashf etilishi butun bir san'at va butun mahoratdir. Farzand tarbiyasining xususiyatlari har xil, lekin ota-onalar farzandining kuchli xislatlari va

fazilatlarini, u nimaga moyilligini ko‘rishlari va unga shu yo‘nalishda rivojlanishi uchun imkoniyat berishlari, kamchiliklarini bartaraf etishlari muhimdir.

1. Boladagi akademik xarakter.

Bunday bola ta’lim va o‘rganishga moyil, o‘qishni yaxshi ko‘radi va ehtimol yaxshi xotiraga ega. U shunchaki o‘qishni yaxshi ko‘rishidan tashqari, u bundan keyin o‘qigan narsasidan qanday foydalanishni — ma’lumotni tahlil qilish va uni amalda qo‘llashni biladi. O‘qish yo‘nalishi muhim emas, u sarguzasht va fantastik romanlarni yoki texnologiya, ixtiro va boshqa qiziqarli narsalarni o‘qiydi. Bolaning har qanday sohada, o‘zini-o‘zi yaxshilashga moyilligi bor. U gumanistmi yoki texnikmi, farqi yo‘q. Bolada shu fazilatlar bo‘lsa, uning “homiysi” bo‘lishingiz kifoya. Shubhasiz, bolaning ko‘proq o‘qish va bilim olish imkonini beradigan yangi kitoblarni, boshqa qiziqarli narsalarni sotib olishga qurbi yo‘qligi sababli, ota-onalar unga bunday imkoniyatni taqdim etishlari kerak. Aytaylik, bola devor qog‘oziga nimadir chizdi — biz unga bo‘yoq sotib olamiz, qog‘oz beramiz. U texnologiyaga qiziqib qoldi — siz unga dizayner, qandaydir texnik ensiklopediya sotib olishingiz mumkin. Dinozavrlarga qiziqish — zudlik bilan dinozavrlarga oid kitoblarni sotib oling. Bunday bolaning ota-onasini omadli deyish mumkin. Siz boshqa hech narsa qilishingiz shart emas, siz bolaga homiylik qilasiz va unga g‘amxo‘rlik qilasiz. Uning o‘zi o‘rganadi va rivojlanadi, bu uning tabiatiga xosdir.

2. Boladagi emotsional xarakter.

Ushbu turdagi bolalar boshqa odamlar bilan munosabatlarni o‘rnatishga, hamdardlik ko‘rsatishga, muloqot qilish va umumiy til topishga moyil. Bunday bolalar boshqalarni juda yaxshi his qiladilar va kim bilan muloqot qilishni, kim bilan muloqot qilishning hojati yo‘qligini tushunadilar, ular yomon munosabatlarni qoldiradilar. Agar ota-onalar buni tushunmasalar, muammolar paydo bo‘ladi. Katta ehtimol bilan, bir nuqtada, bola yopiladi va ota-onasiga ishonishni to‘xtatadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, bunday bolalar har doim ham ko‘p sonli suhbatlarda o‘zlarini aniq ko‘rsatmaydilar, ular jim turishni va o‘z vaqtida tinglashni biladilar. Bunday bolalar kelajakda “jamoaning ruhi”ga aylanadi, ular jamoalarni

birlashtiradi. Kelajakda bunday bolalar yaxshi psixologlar bo'lishlari yoki boshqa odamlar bilan muloqot qilish bilan bog'liq bo'lgan boshqa kasblarda muvaffaqiyatli bo'lishlari mumkin.

3. Boladagi jismoniy xarakter.

Juda faol bolalar. Bu turni ba'zan "armiya" deb atashadi va buning sababi aniq). Bunday bolalar har qanday ota-onani aqldan ozdirishi mumkin. Bola katta ehtimol bilan jismoniy faoliyatga moyil bo'ladi, jismonan yaxshi rivojlangan bo'ladi va ba'zi sport seksiyalari va to'garaklarida katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Bunday bolalar juda ko'p ortiqcha jismoniy energiyaga ega bo'lib, ular sarflashga moyildirlar. Agar u o'g'il bola bo'lsa, unda eng yaxshi narsa bolani o'zi yoqtiradigan sport turiga yuborishdir. Shuningdek, bunday bolalar o'zlarini juda yaxshi tushunadilar. Ular raqobat qilishlari, raqobatlashishi, g'alaba qozonishlari va yana g'alaba qozonishlari, shuningdek, mag'lub bo'lishlari kerak. Shu bilan birga, bu qizlarga taalluqli emas — qiz uchun siz g'alaba qozonishingiz shart emas. Bu holatda ota-onalarning vazifasi, agar qiz sportga yoki boshqa g'azablangan faoliyatga faol jalb qilingan bo'lsa, qizning energiyasini tinchroq va ayollik yo'nalishiga yo'naltirishdir. Bunday bolalarning o'ziga bo'lgan hurmati, agar ular erishgan yutuqlari uchun maqtovga sazovor bo'lsa, juda yaxshi o'sishi mumkin. Bunday bolalar uchun eng muhimi — agar ular muvaffaqiyatga erishsa va biror narsaga erishsa, yana maqtash va maqtashdir.

4. Bolaning ijodiy tabiati.

Bu bolalar juda yuqori darajada rivojlangan tasavvurga ega va biror narsa yaratish va yaratish qobiliyatiga ega. Ushbu turdagi bolani aniqlash uchun siz uni kuzatishingiz mumkin va agar u oddiy narsalarni (aytaylik, ikkita tayoqni) olib, keyin ular bilan bir necha soat o'ynasa — bu ijodiy odam ekanligiga juda o'xshaydi. virtual qiziqarli dunyo bilan kelishi mumkin. Bunday bolalar uchun fantaziya juda muhim — ular xayoliy dunyoda yashaydilar va ular bundan zavqlanishadi. Shuning uchun ular uchun eng zararli narsa televizor va kompyuterdir, chunki bizning kundalik hayotimizning bu obyektlari tasavvurni juda to'sib qo'yadi. Ijodkor bolalar juda zaif bolalardir va televizor va kompyuter

ularni shunchaki yo‘q qilishi mumkin. Shuningdek, ijodiy bolalar tasavvuf va ruhiy dunyo bilan bog‘liq turli xil hikoyalarni iloji boricha sodda tarzda qabul qilishadi, chunki u yerda yana ijodiy fikrlash va fantaziyaning katta ulushi talab qilinadi. Bunday turdagi bolalar uchun eng katta fojia ularning turi emas, balki cheklangan ota-onalar tomonidan nazorat qilinishidir. Bunday bolalarni tarbiyalashda ular bilan birga o‘ynash, ularning ertaklarini yaratishda ishtirok etish, ularning ajoyib xayoliy dunyosini qurishda ishtirok etish eng muhim vazifadir.

5. Bolaning badiiy tabiati.

Bir tomondan, bu turdagi bolalar avvalgisiga juda o‘xshaydi, boshqa tomondan, bu nafaqat xayolparast va xayoliy olamlarni yaratadigan, balki raqsga tushish kabi turli ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘radigan bolalardir. Agar sizda shunday bolangiz bo‘lsa, unda siz va farzandingiz uchun u uchun kimdir, allaqachon ijodiy shaxs sifatida joy olgan kattalarni topish juda muhimdir. Bunday xarakterga ega bo‘lgan bolalar hamisha qaysidir sohadagi daholarga qo‘l cho‘zadi, ularning iste‘dodini ko‘radi, ulardan ibrat olishga intiladi.

6. Bolaning xarakteri – donishmand.

Dunyoda shunday turdagi bolalar bor — dono bolalar. Deyarli tug‘ilishdan boshlab, ular bu dunyoni tushunish, yuqori darajadagi idrok etish uchun ma’lum bir qobiliyatni namoyon etadilar. Bunday bolalar odatda katta yuk yoki bilim miqdoridan zerikishni boshlaydilar, undan qoching. Ko‘pincha, bunday bolalar yoshi bilan katta iste‘dodlarni rivojlantirmaydilar, lekin shu bilan birga ular atrofdagi hamma narsani juda aniq tushunadilar. Bunday bolalarga birinchi navbatda erkinlik kerak. Ular hali ham xohlagan narsani qilishadi. Shunchaki, majburlasangiz, orqangizdan xohlaganini qiladi. Shu bilan birga, ular koinotda qanday joyni egallashlarini tushunishlari uchun koinot qanday ishlashini tushunishlari juda muhimdir. Faqat biron bir mavzuni yoki fanni o‘rganish uchun emas, balki rasmni bir butun sifatida ko‘rish uchun. Bunday bolalarni tayoq orqali o‘rgatish mumkin emas.

7. Bolaning intuitiv tabiati.

Bu bolalar hamma narsani sezgi darajasida tushunadilar. Ular hatto hech

narsani o'rganishlari shart emas va akademik yutuqlar ular uchun umuman muhim emas. Reytinglar muhim emas. Boshqalarning fikri ham ular uchun muhim emas. Bunday bolalar deyarli yo'q yoki juda kam. Va agar ota-onalarning bunday farzandlari bo'lsa, ularning roli faqat ularning qobiliyatlarini tan olish, ularni to'liq qadrlash va ularga hasad qilmaslikdir.



Qobiliyat haqida tushuncha. Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli

bo'lmaydi. Malaka, ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi haqiqatdir. Bolada namoyon bo'ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo'lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'pgina sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turiboq so'nib ketishi mumkin. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. Bolalarda ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.

Masalan, Albert Eynshteyn o'rta maktabda uncha yaxshi o'qimaydigan o'quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo'lishidan hech narsa dalolat bermas edi. Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar

bo'lishi bilan aql sifatlari xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo'yish ham mumkin emas. Agar shu sifatlarning birortasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta'siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo'ladi.

Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shuning bilan birga u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. Hamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Qobiliyatli, ammo noshut inson ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikmada ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli bolaning ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Shuning bilan birga ko'nikma va malakalar yetishmagan qobiliyatni bir muncha to'ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko'nikmalarni umumlashmasi mohirlik deb ataladi. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir. Har qanday qobiliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talabga javob bera olsa kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun o'z qobiliyatligini ko'rsata oladi, agarda xususiyatlardan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatning muayyan turiga nisbatan ham qobiliyatli deb baholanadi. Har bir qobiliyatning o'ziga xos tuzilishi mavjud. Qobiliyat tarkibida tayanch va yetakchi xususiyatlarni, muayyan asosiy yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim. Barcha qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat kuzatuvchanlik, bilish ko'nikmasidir. Bu individual narsaning o'ziga xos tomoni, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishlik hisoblanadi.

Qobiliyatlarning rivojlanishi uchun dastlab iste'dod nishonalaridan iborat bo'lgan muayyan asos bo'lishi zarur. Iste'dod nishonalari ostida, qobiliyatlar rivojlanishining tabiiy asosini tashkil etuvchi asab tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari tushuniladi. Masalan, qobiliyatning tug'ma nishonalari sifatida turli analizatorlar rivojlanishining xususiyatlari namoyon bo'lishi mumkin. Xuddi shunday, eshitish idrokining muayyan xarakteristikalarini musiqiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun asos sifatida yuzaga kelishi mumkin. Intellektual qobiliyatlarning nishonalari esa, avvalambor, miyaning u yoki bu darajadagi qo'zg'aluvchanligida, asab jarayonlarining harakatchanligida, vaqtincha aloqalarning hosil bo'lish tezligida ko'rinadi. Nishonalarning rivojlanishi – bu tarbiya sharoitlari va jamiyat rivojlanishining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy shartlangan jarayon. Jamiyatda u yoki bu kasbga ehtiyoj tug'ilgan sharoitda nishonalar rivojlanadi va qobiliyatlarga aylanadi; nishonalar rivojlanishining ikkinchi muhim omili tarbiyalash xususiyatlari hisoblanadi.

Nishonalar maxsus bo'lmaydi. Odamda muayyan turdagi nishonalarning mavjudligi qulay sharoitlarda ular asosida ma'lum qobiliyatning rivojlanishi zarurligini bildirmaydi. Bir xil qobiliyatlar asosida faoliyat talablarining xususiyatiga ko'ra turli xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Xuddi shunday, eshitish qobiliyati va ohang hissiga ega bo'lgan odam musiqa ijrochisi, raqqosa, qo'shiqchi, musiqa tanqidchisi, pedagog, bastakor va h.k. bo'lib yetishishi mumkin. Shu bilan birga, nishonalar kelajakdagi qobiliyatlar xarakteriga ta'sir etmasligini inkor etish yaramaydi. Xuddi shunday, eshitish analizatorining xususiyatlari aynan ushbu analizator rivojlanishining alohida darajasini talab etadigan qobiliyatlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Qobiliyatlardan farqli ravishda nishonalar insonning ularga murojaat qilishi yoki qilmasligi, amaliyotda foydalanishi yoki foydalanmasligidan qat'iy nazar, uzoq vaqt davomida mavjud bo'lib, saqlanishi mumkin. Shunday qilib, nishonalar o'zida qobiliyatlarni jamlamaydi va ularning rivojlanishini kafolatlamaydi, deb aytish mumkin. Ular faqat qobiliyatlar rivojlanishining shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qobiliyatlarning juda ko'p turlari mavjud. Hozirgi zamon psixologiyasida inson

qobiliyatlarining tasniflanish turlari ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning ichidagi umumiy tasniflashga ko'ra qobiliyatlar ikki guruhga: umumiy va maxsus qobiliyatlarga bo'ladi. Bu guruhlarining har biri oddiy va murakkab, guruh ichida esa alohida turlarga bo'linadi.

Umumiy boshlang'ich qobiliyatlar – bu qobiliyatlar turli darajadagi ifodalanishda bo'lsada, barcha odamlarga xos. Ularga psixik aks ettirishning asosiy shakllari: sezish, idrok qilish, esda olib qolish, qayg'urish, fikrlash, xayol surish, qaror qabul qilish va amalga oshirish kiradi. Bu qobiliyatlarning boshlang'ich ifodalari mos bo'lgan sensor, tafakkur, irodaviy samaralar bilan bajariladigan psixik harakat. Mashqlar natijasida u muvofiq ko'nikmaga aylanishi mumkin.

Maxsus boshlang'ich qobiliyatlar – bu qobiliyatlar barcha odamlarga xos bo'lmay, ular psixik jarayonlarning qandaydir sifat tomonlarining ma'lum ifodalanishini taqazo etadi.

Ko'z bilan chamalash – bu ko'rish orqali idrok qilinadigan obyektlarning kattaliklarini, ular o'rtasidagi va ulargacha bo'lgan masofalarning turli aniqlikda idrok qilish, baholash va taqqoslash qobiliyati, ya'ni, ko'rish orqali idrok qilishning ma'lum sifati.

Musiqaviy eshitish qobiliyati – bu musiqali tovushlarni farqlash va ularni aniq joriy etish qobiliyatida namoyon bo'ladigan eshitish orqali idrok qilishning ma'lum sifati sanaladi. Musiqali eshitish qobiliyati – bu musiqali qobiliyatlarning tarkibiy qismlaridan biri. Maxsus odatdagi qobiliyatlar ta'lim jarayonida iste'dod nishonalari asosida rivojlanadi.

Umumiy murakkab qobiliyatlar – bu umuminsoniy faoliyat turlari: mehnat, ta'lim, o'yin, bir-biri bilan muloqotga bo'lgan qobiliyatlar. Ular u yoki bu darajada barcha odamlarga xos. Bu guruhga mansub qobiliyatlarning har biri shaxs xossalariining murakkab tarkibini tashkil etadi.

Maxsus murakkab qobiliyatlar turli darajada emas, umuman barcha odamlarga xos bo'lmagan qobiliyatlar. Ular inson madaniyati tarixi jarayonida yuzaga keladigan ma'lum kasbiy faoliyatga bo'lgan qobiliyatlar hisoblanadi. Ular,

odatda, kasbiy qobiliyatlar deb ataladi.

Qobiliyatlarning rivojlanishida shartli ravishda bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin. Har bir odam o'z rivojlanishida u yoki bu ta'sirlarga, biror-bir faoliyat turlarini egallashga nisbatan yuqori sezuvchanlik davrlaridan o'tadi. Bola 2-3 yoshiga yetganida og'zaki nutqi jadal rivojlanadi, 5-7 yoshda o'qishni egallashga tayyor bo'ladi. Bolalar maktabgacha davrning o'rta va katta yosh bosqichlarida rolli o'yinlarni berilib o'ynaydilar va rolga kirishib ketib, o'zlarida uni gavdalantirishga bo'lgan qobiliyatni sezadilar. Shuni ta'kidlash muhimki, faoliyatning maxsus turlarini egallashga bo'lgan shaylik davrlari ertami kechmi yakun topadi, agar bu qulay davrda qandaydir xususiyat rivojlantirilmay qolgan bo'lsa, keyinchalik bunday rivojlantirish o'ta qiyinlashadi yoki amalga oshmaydi. Shuning uchun bola qobiliyatlarining rivojlanishi uchun uning shaxs sifatida rivojlanishining barcha bosqichlari muhimdir. Istalgan qobiliyat rivojlanishining birlamchi bosqichi uning uchun zarur bo'lgan organik hosilalarning yetilishi yoki ularning asosida kerakli fundamental organlarning shakllanishi bilan bog'liq. Odatda, bu tug'ilishdan boshlab, 6-7 yoshgacha bo'lgan davrda sodir bo'ladi. Ushbu bosqichda barcha analizatorlar faoliyatining takomillashuvi, bosh miya po'stlog'i alohida sohalarining rivojlanishi va ular vazifasining bo'linishi amalga oshiriladi. Bu bolada umumiy qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishining boshlanishi uchun qulay sharoit yaratib beradi, bu qobiliyatlarning ma'lum darajasi maxsus qobiliyatlar keyingi rivojlanishining sharti bo'lib hisoblanadi. Maxsus qobiliyatlarning rivojlanishi maktabda, ayniqsa, kichik va o'rta sinflarda davom ettiriladi. Maxsus qobiliyatlarning rivojlanishiga avval bolalarning turli xil o'yinlari yordam beradi, so'ngra esa ularga o'quv va mehnat faoliyati o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. O'yinlar jarayonida ko'pchilik harakatli, konstruktorlik, tashkilotchilik, badiiy-tasviriy va boshqa ijodkorlik qobiliyatlarining rivojlanishi sodir bo'ladi. O'yinlarning muhim bo'lgan o'ziga xos xususiyati ularda bir emas, birdaniga bir qancha qobiliyatlar yaxlit majmuasining rivojlanishi hisoblanadi.

Bola shug'ullanayotgan barcha faoliyatlar hammasi ham, u o'yin, yasash yoki chizish bo'lsin qobiliyatlarning rivojlanishi uchun birday ahamiyatga ega

bo'lmaydilar. Qobiliyatlarning rivojlanishiga ko'proq, bolani o'ylashga majbur qiladigan ijodkorlik faoliyati yordam beradi. Bunday faoliyat har doim biror yangilik yaratish, o'zi uchun yangi bilimni kashf etish, o'zida yangi imkoniyatlarni aniqlash bilan bog'liq va u bilan shug'ullanish uchun, hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan zarur kuchlarni ishga solishga kuchli rag'bat bo'ladi. Bundan tashqari ijodkorlik faoliyati ijobiy o'zini baholashni mustahkamlaydi, talablar darajasini oshiradi, o'ziga ishonch va erishilgan yutuqlardan mamnunlik hissini uyg'otadi. Agar bajarilayotgan faoliyat eng maqbul qiyinchiliklar sohasida, ya'ni, bola imkoniyatlari chegarasida joylashgan bo'lsa, u holda qobiliyatlarning rivojlanishiga olib keladi.

Qobiliyatlarning rivojlanishi ko'p darajada iste'dod nishonalarining joriy etilishiga imkon yaratuvchi sharoitlarga bog'liqdir. Bunday sharoitlardan biri oiladagi tarbiya xususiyatlaridir. Agar ota-onalar o'z bolalarida qobiliyatlarning rivojlanishi haqida qayg'urar ekanlar, bolalarda biror-bir qobiliyatning aniqlanish ehtimolligi o'z hollariga tashlab qo'yilgan bolalarga qaraganda ancha yuqori bo'ladi. Qobiliyatlar rivojlanishi mumkin bo'lgan sharoitlarning boshqa guruhini makromuhit xususiyatlari belgilab beradi. Makromuhit deb, inson tug'ilib, o'sgan jamiyat xususiyatlariga aytiladi. Makromuhitning ijobiy omili bo'lib, jamiyatning o'z a'zolaridagi qobiliyatlarning rivojlanishi haqida g'amho'rlik ko'rsatishidagi vaziyat hisoblanadi. Qobiliyatlarning rivojlanishida muhim o'rinni motivatsiya va u sababli yuzaga keladigan zo'riqishli faollik egallaydi. Xuddi shunday, iste'dodli bolalar o'zlari intilayotgan faoliyatga nisbatan moyillik bildiradilar. Ular muntazam va jadal ravishda toliqmay, o'zlariga qiziqarli faoliyat bilan shug'ullanadilar. Qobiliyatlarning rivojlanishini insonga tabiat tomonidan berilganlarning yetilishi kabi tabiiy iste'dod nishonalarining ham miqdor jihatdan o'sishi sifatida tushunish yaramaydi. Qobiliyatlarning rivojlanishi insonga uning faoliyati jarayonida, bu faoliyatning turli-tumanligi va mazmundorligi, unda kuchlarni maksimal darajada ifodalanishi bilan qo'yiladigan talablar orqali belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, faoliyatni qobiliyatlar shakllanishining manbai va omili, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik va ishchanlikni esa – hayotda

orttirilgan qobiliyatlar shakllanishining muhim shartlari sifatida ko‘rib chiqish lozim. Inson amaliyotda foydalanmay qo‘ygan rivojlantirilmagan qobiliyat vaqt o‘tishi bilan yo‘qoladi. Faqat muntazam mashqlar tufayli biz o‘zimizda maqbul qobiliyatlarni mustahkamlab, rivojlantirib boramiz. Qobiliyatlarni samarali tarzda rivojlantirish uchun «chegara nazariyasi» xulosalarini hisobga olgan holda, unga binoan, inson o‘zining jismoniy yoki aqliy imkoniyatlari chegarasida faoliyat yuritib, o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon etadi va rivojlantiradi. Lekin bunda to‘siqlar tamoyilining xususiyatlarini hisobga olish zarur, unga binoan, to‘siq aynan ushbu odam uchun muvofiq bo‘lishi lozim.

Rivojlanishining birinchi bosqichida qobiliyatlar reproduktiv va taqlidiy xususiyatga ega bo‘ladilar, lekin o‘ziga xos, ijodiy elementlarning qanchalik tez va aniqroq namoyon bo‘lishi, iste’dod haqida so‘z yuritishga asos bo‘la oladi. Qobiliyatlar rivojlanishining ikkinchi bosqichida faoliyatdagi ijodiy elementlar, masalalarni tuzish va hal etishda mustaqillik xususiyatlari kuzatiladi. Xuddi shu tartibda o‘zida qobiliyatlarni rivojlantirish va tarbiyalash uchun ichki shartlar yaratiladi.



Bolalarning psixik holatlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy hayot talablari, ya'ni axloqiy me'yorlarni bajarish yoki bajarmaslikka bog‘liq ravishda muayyan kechinmalar yuzaga keladi. Burch hissining ilk bor namoyon bo‘lishi 4-5 yoshlarga to‘g‘ri keladi. Chunki bu davrda mavjud bilimlar, ko‘nikma va malakalar asosida bolada axloqiy ong shakllana boshlaydi. Chunki bu davrda bolalar kattalarning talablarini tushuna boshlaydi va ularni o‘z xatti-harakati hamda boshqalarning xulq-atvoriga tatbiq eta boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda faxr va uyat kabi yetuk kechinmalar ham paydo bo‘ladi. Faxr hissining paydo bo‘lishi uchun bola ongida konkret fazilatlar bilan atrofdagilarning ularga beradigan ijobiy bahosi o‘rtasida mavjud aloqadorlik haqida shakllangan tasavvurlar ichki asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, 4-5 yoshli bolalar faoliyatning har xil turlarida

erishadigan miqdoriy ko'rsatkichlar bilan birgalikda chiroyli raqsga tusha olish; tez chopa olish; axloqiy xususiyatlar (chidam, diqqat); bilan ota-onalari faxrlanadilar.

Maktabgacha yosh davrining oxiriga kelib oliy hissiyotlar tobora ko'proq bola xulq-atvorining motivlariga aylanib boradi. Hissiyotlar vositasida bolalar jamiyatda o'qatilgan estetik, axloqiy talablarga muvofiq ravishda o'z xohish istaklari, xatti-harakatlarini boshqara boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsiya va hissiyotlarning rivojlanishi bir qator shartlar bilan bog'liq.

M.I. Lisinaning tadqiqotlari ko'rsatishicha, emotsiya va hissiyotlar bolaning kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqoti jarayonida shakllanadi. Hayotining dastlabki yillaridan boshlab oiladan tashqarida tarbiyalangan bolalardagi sust emotsional rivojlanish butun hayotlari davomida saqlanib qolishi mumkin. Buning sababi shuki, maktabgacha tarbiya muassasalarida bitta kishiga ko'p bola to'g'ri keladi. Natijada tarbiyachilarning har bir bola bilan emotsional kontakti kam bo'ladi.

M.M. Kolsovaning ma'lumotlariga ko'ra, oiladagi nosog'lom muhit darhol bolaning chizadigan rasmlarida aks etadi. Oiladagi noto'g'ri munosabatlar ba'zida bir tomonlama affektiv bog'liqlikni (ko'pincha onaga bo'lgan bog'liqlikni) yuzaga keltiradi. Bunda bolaning tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji susayadi, bolaning xulq-atvori haddan tashqari kattalarga bog'liq bo'lib qoladi, bola, hatto, kuchli salbiy kechinmalar (masalan, o'zi bog'lanib qolgan shaxsga nisbatan rashk)ni his qilishi mumkin.

M.M. Kolsova va V.S. Muxinaning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolada ota-onaga nisbatan rashkning namoyon bo'lishi oilada yangi farzand tug'ilishi bilan bog'liq bo'ladi. Emotsiyalar va hissiyotlar maktabgacha yosh davrida yetakchi bo'lgan faoliyat turi – o'yinda juda intensiv rivojlanadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat yetakchi, balki xilma-xil kechinmalarga boy faoliyat turidir. Emotsiyalar va hissiyotlar bola faoliyati kechadigan ijtimoiy-psixologik vaziyat bilan bog'liq. Emotsiogen vaziyatlar, ya'ni kuchli kechinmalarni uyg'otuvchi vaziyatlar yangiligi, g'ayrioddiylik bilan ajralib turadi. Bola kattalarga nisbatan ancha ko'p emotsiyalarni boshdan kechiradi.

Buning sababi shundaki, bolaning hayoti tajribasi hah kam bo'lganligi uchun ko'p narsa unga g'aroyib va yangi bo'lib ko'rinadi. Vaziyatga ko'ra bolaning hissiyot va emotsiyalari ham ijobiy (muhabbat, xursandchilik), ham salbiy (jahl, nafrat) bo'lishi mumkin. Agar bola ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatiga ega bo'lsa ijobiy kechinmalar (stenik kechinmalar) hosil bo'ladi. Bordi-yu, vujudga kelgan vaziyatda bola o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lmasa, salbiy (astenik) emotsional kechinmalar paydo bo'ladi. Umuman olganda, bolalar hayotiy vaziyatlarga optimistik munosabatda bo'ladilar, ularga tetik, hayotdan mamnunlik kayfiyati xos. Emotsiya va hissiyotlarning ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek, shartlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish bolalarda maktabga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish imkonini beradi. Maktabga psixologik tayyorgarlikning asosiy komponentlaridan biri emotsional tayyorgarlikdir. Bu tayyorgarlik nafaqat maktabda ta'lim boshlashni xursandchilik bilan kutib olish, balki shu bilan birga oliy hissiyotlarning ancha rivojlangan bo'lishi, bola shaxsining emotsional xususiyatlari shakllangan bo'lishini taqozo qiladi.

2.2. MAKTABGA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNING PSIXIK TARAQQIYOTI VA TA'LIM.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida yugurish, chang'ida uchish, suzish singari harakatlarni ham bemalol bajarishlari mumkin. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda esa xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar.

6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor berish, shuningdek, umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishiga ahamiyat berish,

nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o'sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin.

Motivatsion tayyorgarlik. Katta bog'cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. "Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan maza qilib o'ynayman", "Maktabda uxlatishmaydi". Bunday motivlarni bolalarga odatda ota-onalar singdiradilar. Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy sabab bo'la olmaydi. Ota-onalar, pedagog, tarbiyachilar tomonidan bolalarga bilish, o'rganish motivlarini singdirilishi maktabda muvaffaqiyatli o'qish omili bo'lib xizmat qila oladi. "Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak", "Yozishni juda yaxshi ko'raman", "O'qishni o'rganaman", "Maktabda qiyin misollarni yechishni o'rganaman"- bunday motivlar to'g'ri motivatsion tayyorgarlikka misol bo'la oladi.

Aqliy tayyorgarlik. Ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan boshqa bilish jarayonlarini ham talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo'lib, yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali obrazli tafakkur bilan bola

atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog‘liqlikni ajrata olishidir. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ham aqliy rivojlanishida asosiy vazifani bajaradi. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy, ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog‘liq.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘rtog‘ining salbiy xususiyatlarini ko‘pchilik va begonalar o‘rtasida bemalol aytib olish xususiyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa axloq va odobi jihatidan tanqidga uchrayotgan bolani o‘rtoqlari jamoasiga qo‘shilishdan bosh tortishiga yoki umuman maktabga kelishni istamasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sabab bolani o‘rtoqlari va ustozlari tomonidan tanqidga uchramaydigan darajada axloq-odob qoidalariga o‘rgatish ahamiyati jihatidan kam bo‘lmagan axloqiy tayyorgarlik hisoblanadi. Bolani maktabga irodaviy tayyorgarligi uni yangi kun tartibiga amal qilishida, dars jarayonida qunt bilan bilimlarni o‘zlashtirishida, uy vazifalarini bajarishida o‘z yordamini ko‘rsatadi. Maktabga o‘qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeyini — turli majburiyatlari va huquqlari bo‘lgan va unga turli talablar qo‘yiladigan — o‘quvchi mavqeyini olish uchun tayyor bo‘lmog‘i lozim. Ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun tabiiy ravishda asos bo‘la oladi. Bolaning endi o‘zini katta bo‘lganini, bog‘cha bolasi emas, balki ma’lum bir majburiyatlari bor o‘quvchi bo‘lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug‘ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o‘qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Har bir bola bolalar jamoasiga qo‘shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba’zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta’minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o‘qishidagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko‘pincha bu yoshdagi

bolalar o'qituvchini uzoq vaqt davomida tinglay olmaydilar, o'quv harakatlariga uzoq vaqt o'z diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab, faqat, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olish xususiyatiga ham bog'liq. Chunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlar kurtaklarining birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi. Bilish jarayonlarining sintezi bolaning o'z ona tilini to'liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunlana boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me'yorlari va qoidalar egallaniladi. Bu me'yor va qoidalar bola axloqini boshqaradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlari deganda nimalarni tushunasiz?.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarining shakllanishi qanday kechadi?
3. Temperament nima?

4. Xarakter nima?
5. Qobiliyatlar nima?
6. Hissiy zo‘riqlishlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularning namoyon bo‘lishi deganda nimalarni tushunasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
2. Детские народные подвижные [ТЕКСТ]: кн. Для воспитателей дет.сада и родителей / сост.: А.В. Кенеман, Т.И. Осокина. – 2-е изд., М.: Просвещение, 1995. – 224 с.
3. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma: Q.1 / X. Tulenova [va boshq.]; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2012. – 72 b. ISBN978-9943-13-350-1
4. Кенеман А.В. Теория и методика физического воспитания детей дошкольного возраста [ТЕКСТ]: учеб.для студентов вузов / А.В. Кенеман, Д.В. Хухлаева. – 3-е изд., – М.: Просвещение, 1985. – 271 с.
5. Мухина В.С. Детская психология. учеб. для студентов./под ред. Л.А. Венгера. – 2-е изд., – М.: Просвещение, 1985. – 272 с.
6. Смирнова Е.О. Детская психология. учеб. для студентов выш. пед. учеб. заведений, «Дошкольная педагогика и психология»/ Смирнова Е.О. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2008. – 366 с. ISBN 978-5-691-00893-1
7. Tulenova X.B. Sport psixologiyasi: 5141900 – Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.; “Yurist-mediya”, 2011. – 270 b. ISBN 978-9943-387-09-6
8. Урунтаева Г.А. Детская психология: учеб. для студентов выш. пед. учеб. заведений / Урунтаева Г.А. . – М.: изд. центр “АКАДЕМИЯ”, 2013. – 336 с. ISBN 978-5-7695-9674-2



**AMALIY MASHG‘ULOT
MATERIALLARI**

3-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O‘YIN FAOLIYATINI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Amaliy mashg‘ulotning ta‘lim texnologiyasi.

O‘quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli:	Amaliy mashg‘ulot
Amaliy mashg‘ulot rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. O‘yin bog‘cha yoshdagi bolalarda yetakchi faoliyat sifatida. 2. O‘yin faoliyatini bola psixik taraqqiyotiga ta‘siri. 3. O‘yin turlari va ularni psixologik xususiyatlari.
• Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:	Amaliy mashg‘ulotning didaktik maqsadi tinglovchilarga Bola psixik taraqqiyoti qonuniyatlari va umumiy xususiyatlari. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, mental arifmetika, elementar matematika, qo‘l motorika, art terapiya, musiqa terapiya, qum terapiyasi, ertak terapiya, syujet-rolli o‘yinlar, milliy va harakatli o‘yinlar bo‘yicha bilimlarni shakllantirish.
• Pedagogik vazifalar: – maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish orqali zamonaviy yondashuvlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan metodologik bilimlarni shakllantirish; - kichik guruhlarda ishlay olish qobiliyatlarini shakllantirish; • - mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatish;	• O‘quv natijalari: • Amaliy mashg‘ulotdan so‘ng tinglovchilar bilishi lozim: <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘yin bog‘cha yoshdagi bolalarda yetakchi faoliyat sifatida. 2. O‘yin faoliyatini bola psixik taraqqiyotiga ta‘siri. 3. O‘yin turlari va ularni psixologik xususiyatlarini didaktik o‘yinlarni tashkillashtira olish haqida bilishi kerak.
• Ta‘lim metodlari:	• Ma‘ruza, suhbat, munozara, tezkor so‘rov.
• Ta‘lim vositalari:	• Ma‘ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, videoproektor, prezentatsiyalar.
• Ta‘lim shakli:	• Frontal, guruhlarda ishlash.
• O‘qitish shart-sharoitlari:	• Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
• Monitoring va baholash.	• Nazorat savollari.

AMALIY TA'LIM MAZMUNI

3-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'YIN FAOLIYATINI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Reja:

- 3.1. O'yin bog'cha yoshdagi bolalarda yetakchi faoliyat sifatida.
- 3.2. O'yin faoliyatini bola psixik taraqqiyotiga ta'siri.
- 3.3. O'yin turlari va ularni psixologik xususiyatlari.

Tayanch iboralar: Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik, mental arifmetika, elementar matematika, qo'l motorika, art terapiya, musiqa terapiya, qum terapiyasi, ertak terapiya, syujet-rolli o'yinlar, milliy va harakatli o'yinlar.

3.1. O'YIN BOG'CHA YOSHDAGI BOLALARDA YETAKCHI FAOLIYAT SIFATIDA

Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xom-xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. Shunday qilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir. Shuni ham ta'kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo, bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (ya'ni, analogik tarzda), har xil xayoliy narsalarni o'ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni anglatadiki, ular o'zlarining turli o'yin

faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar. Bolalarning o'yin faoliyatlarida turli hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi. Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko'pincha umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Buni shunday tushunish kerakki, bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarnigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Bu yoshdagi bolalar o'z vaqtining ko'p qismini o'yin bilan o'tkazadi, ayniqsa 3 yoshdan 6-7 yoshgacha o'yinlar ahamiyatli taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi: predmetli-boshqaruv va ramziy o'yinlardan tortib to qoidali syujetli-rolli o'yinlargacha. Bu yosh davrida barcha o'yin turlarini ko'rish mumkin. Bu yosh davri davomida bolalarning quyidagi asosiy faoliyat turlari izchillikda takomillashib boradi: predmetlar bilan boshqarish o'yini, konstruktiv tipdagi individual predmetli o'yin, jamoaviy syujetli-rolli o'yinlar, individual va guruhijod, o'yin-musobaqa, o'yin-muloqot, uy mehnati. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar asosan predmetlar, turli xil o'yinchoqlar bilan yolg'iz o'zlari o'ynaydilar. O'zlarining predmetli va konstruktorli o'yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur jarayonlarini, o'z harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, (oyisini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabilarni). O'rta yoki katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi. Sekin-asta o'rta maktabgacha davrga borib o'yin jamoaviy bo'lib boradi va unga ko'proq bolalar qo'shila boshlaydi. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o'yinlari davomida kuzatish qulaydir. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning

predmetlarga munosabatiningina emas, balki ko'proq ularning o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o'yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, qontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, jamoa o'yinidagi har bir bola o'z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o'yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yini, bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariga, tartib-intizomga bo'ysungan va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi. Eng asosiysi bu o'yinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan – rollariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Bolalar ushbu munosabatlar asosida quriladigan rollarni va qoidalarni ajratadilar, o'yinda unga amal qilinishini qattiq nazorat qiladilar va o'zlari ham ularga rioya qilishga harakat qiladilar.

Bu yosh davridagi bolalar ijodiy faoliyatdan tasviriy san'at ayniqsa, rasm chizishni yaxshi ko'radilar. Bolaning nimani va qanday ifodalashiga qarab, uning atrof olamdagi voqelikni qanday idrok qilishi, xotirasi, xayoli va tafakkurining o'ziga xosligi haqida mushohaza qilish mumkin. Rasmlar orqali bolalar tashqi olamdan olayotgan tassurotlari va bilimlarini yetkazishga harakat qiladilar. Rasmlar bolaning jismoniy va psixologik holatiga ko'ra o'zgarishi mumkin. (kasallik, kayfiyat). Aniqlanishicha, kasal bolalar chizgan rasmlar sog'lomlarnikidan ko'pgina jihatlari bilan farq qiladi. Maktabgacha yosh davri badiiy-ijodiy faoliyatida musiqa muhim ahamiyatga ega. Bolalarga musiqiy asarlarni tinglash, musiqiy qatorlarni va tovushlarni turli asboblarda takrorlash

quvonch bag'ishlaydi. Bu yosh davrida birinchi marotaba musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga qiziqish paydo bo'ladi, u keyinchalik haqiqiy qiziqishga aylanishi va musiqiy qobiliyatni rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar qo'shiq aytishga, musiqa ostida turli ritmik, raqs harakatlarini bajarishga o'rganadilar. Qo'shiq aytish musiqani anglash va vokal qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Maktabga chiqishdan bir yoki ikki yil avval ularga o'quv faoliyati qo'shiladi va 5-6 yoshli bola eng kamida faoliyatning 7-8 turiga tortiladi, ularning har biri bolani o'ziga xos ravishda intellektual va axloqan rivojlantiradi.

3.2. O'YIN FAOLIYATINI BOLA PSIXIK TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. 3-7 yoshli davrida bolalarning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhij ijod;
- musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog'chadagi o'rtoqlari va qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar. Hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir. Bog'cha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish

jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi. Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Ma'lumki, bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va hodisalar bo'yicha dunyoqarashi kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bu yoshdagi bolalarning o'yinlarini uchga bo'lish mumkin:

- 1) predmetli o'yinlar(15-20 minut o'ynaladi);
- 2) syujetli-rolli o'yinlar (30-60 minut o'ynaladi);
- 3) qoidali o'yinlar (1soatdan -2 kungacha davom etishi mumkin).

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa harakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofidagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, haddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki abtobusni o'zi haydagisi, haqiqiy otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya'ni, bolaning o'yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin:

- birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o'yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

- ikkinchidan, bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, o‘zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo‘ladilar.

3.3. O‘YIN TURLARI VA ULARNI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

O‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lgani uchun uning syujetini bolalar o‘zlari o‘ylab topishadi va o‘zlari tashkil etishadi. O‘yinda bolalar o‘zlarining kichkina jamiyatning a‘zosi deb hisoblashadi, o‘zaro kelishib harakat qilishga o‘rganishadi. Ijtimoiy tarbiya olayotgan sharoitda har bir bola o‘ynayotgan bolalar jamoasiga kira olishi, u yerda o‘z o‘rnini topa olishi va shu jamoada o‘rnashib olishi lozim. Tarbiyachi ilk yoshli bolalarda ularning narsalar bilan o‘ynay olishi, diqqatini shunga to‘play olish qobiliyatini tarkib toptiradi. Bu boshqa bolalar bilan yonma-yon tinch o‘ynay olish malakasini shakllanishiga yordam beradi. Bolalar birgalikda o‘ynashga o‘tganlarida bir-birlari bilan ma’lum munosabat o‘rnatishlari lozim bo‘ladi. Xuddi mana shu munosabat jamoatchilikni shakllantiradi. Bunga tarbiyachi bolalarni kelishib o‘ynashga o‘rgatish orqali erishadi.



Sahnalashtirilgan o‘yinlar ijodiy o‘yinlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o‘yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, hayot qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg‘unligi, bolalarning mustaqillik va o‘z o‘zini uyushtira olish jihatlari xos. Sahnalashtirilgan o‘yin badiiy asar asosida ko‘riladi: o‘yin syujeti, rollar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko‘ra belgilanadi. Sahnalashtirilgan o‘yin bolalarning eshitgan asar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so‘zlashga o‘rgatish usullaridan biridir. Ba’zi bir bolalarda badiiy asarlardan olingan parchani qayta

soʻzlab berishga xohish ham qiziqish ham boʻlmaydi, ammo unga oʻyin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, oʻsha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi. Bunday oʻyinda bola oʻzini oʻsha asardagi qahramon oʻrnida his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida soʻzlab berish boladagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud boʻlgan ijobiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan oʻyinda badiiy asarning gʻoyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi. Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli boʻlib, bola unga kirishib ketgan taqdirdagina asardagi obraz va harakatlar toʻgʻri aks ettiriladi. Shuning uchun u yoki bu badiiy asar boʻyicha sahnalashtirilgan oʻyin oʻtkazishdan oldin tarbiyachi asarning mazmunini aks ettirishga yordam beradigan tayyorgarlik ishini oʻtkazishi kerak. Bu ish oldindan bir qator mashgʻulot va oʻyinlar oʻtkazish orqali amalga oshiriladi.



Didaktik oʻyin taʼlim bilan bevosita bogʻliq boʻlib, unga yordam beradi. Didaktik oʻyin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan taʼlim berish metodidir. Tajribali tarbiyachi bu oʻyindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qoʻrqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi. Didaktik oʻyinni amalga oshirishda har doim gʻoyaviylik prinsipiga asoslanish kerak. Didaktik oʻyin tarbiyachining vazifa hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim. Didaktik oʻyinlar bolalarning birgalikda oʻynab, oʻz manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uygʻunlashtira olishi, bir-biriga koʻmaklashish va oʻrtogʻining muvaffaqiyatidan xursand boʻlishi kabi yaxshi munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Oʻyinlar shaxsning sofdillik, rostgoʻylik kabi ijobiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi. Didaktik oʻyin bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, chunki unda bolalar mashgʻulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit

yaratib beradi. Bunday o‘yinlarga kichik bolalar uchun «Rangiga qarab top», «Shakliga qarab top» kabi o‘yinlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Katta guruh bolalari uchun «nimalar va qanday ishlarni bilishadi?», «Dehqonlar nimalarni yetishtiradi?», «Kim ko‘proq narsalarning nomini ayta oladi?» va boshqa o‘yinlarni ko‘rsatish mumkin. Demak, didaktik o‘yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o‘z shaxsiy tajribalari va mashg‘ulotlarda olgan bilimlarni amalda qo‘llay olishga o‘rganadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy kuchlarni, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarni tartibga soladi. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o‘yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o‘zlashtiradilar. Didaktik o‘yin bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o‘yin elementlari qancha ko‘p bo‘lsa, bolalarga u shuncha quvonch bag‘ishlaydi. Didaktik o‘yining muhim tomoni — uni o‘tkazishdan ko‘zda tutiladigan g‘oyadir. O‘yin g‘oyasi bolalarda o‘yinga qiziqish uyg‘otadi, ko‘pincha bu g‘oya didaktik o‘yinni boshlashga sababchi bo‘ladi.



Mayda motorika – bu bolalarni qo‘l-oyoqlarining kaftlari va barmoqlari bilan mayda va aniq harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Mayda motorika sohasi o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib u ko‘p sonli va turli xil harakatlarni o‘z

ichiga oladi. Masalan: oddiy harakatlardan tortib(masalan, o‘yinchoqni, har xil detallarni ushlash) murakkab harakatlargacha (yozish va rasm chizish kabi). Mayda motorikalar bola tug‘ilgan paytidan boshlab rivojlana boshlaydi. Dastlab, go‘dak o‘z qo‘llarini o‘rganadi va asta sekin ularni boshqarishga o‘tadi. U buyumlarni butun kafti bilan ushlaydi, keyin esa faqat ikkita(katti va ko‘rsatkich) barmog‘i bilan ularni ushlaydi. Shu orqali bolalar dastlab o‘yinchoqlar, keyin qoshiq, qalam, mo‘yqalam kabi buyumlarni to‘g‘ri ushlashga o‘rgatiladi. Mayda motorikaning bola organizmidagi o‘rni va ahamiyati alohida sanaladi. U bolalarni

asab tizimi, ko'rish qobiliyati, diqqat e'tibor, xotira va idrok qilish kabi organizm xususiyatlarini shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari bolaning nutqini rivojlanishida ham mayda motorikasini ta'siri yuqori bo'lib, dastlab bolaning tovushlarini shakllanishiga va nutqini o'sishiga motivatsiya bo'lib xizmat qiladi. Mazkur sohaning bola rivojlanishidagi o'rnini haqida Davlat talablarida ham alohida e'tibor qaratilgan. Davlat talablarining 1-sohasi "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" bo'lsa 2-qismida esa mayda motorika bo'yicha ko'rsatmalar asoslab o'tilgan. Unga muvofiq, 3-4 yoshli bolalarga qo'yiladigan talab quyidagicha: bola qo'li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatadi. Kutilayotgan natijalar: bola xalqiga arqonni kirgizadi; mayda predmetlarni ma'lum bir tartibda taxlaydi; mustaqil ravishda o'yinchoqlarni qutiga joylashtiradi va undan oladi; kattalar yordamida yirik hajmdagi munchoqlarni ipga o'tkazadi; buyumlarni bir idishdan ikkinchisiga joylashtiradi; 2-3 obyektidan rasm tuzadi; varaq sathida to'g'ri chiziqlar chizadi; harflar qiziqish bildiradi, ayrim harflarni shaklini biladi va farqlaydi; yirik munchoqlarni teradi; yozishga harakat qiladi. 4-5 yoshli bolalar: mustaqil tugmachalarni qadaydi va yechadi, kiyimi va poyabzali ilgaklarini o'zi taqadi; namuna asosida ipga mayda, o'rta va yirik munchoqlarni teradi; qulflarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi; mayda buyumlarni buraydi va bir biriga ulaydi; konstruktorning katta va kichik qismlaridan har xil predmetlar yasaydi; namuna asosida to'g'ri chiziq va aylana chizadi; rasmlarni ustidan yurgizib chizadi va bo'yaydi; ko'rsatilgan chiziq bo'yicha qog'oz, mato va salfetskani buklaydi; ko'rsatilgan chiziq bo'ylab qaychi bilan qirqadi. 5-6 yoshda: yuzalarda turli chiziqlar chizadi; kichik va katta o'yinchoqlarni qutiga hajmiga qarab joylashtiradi; murakkab konstruksiyalarni jamlaydi; qopqadagi o'yinchoqlarni paypaslab nomini aytaoladi; to'g'ri chiziq bo'ylab qog'ozni mustaqil qirqadi; chiziq, ilgak va gajakcha yozadi; qog'ozni turli usulda taxlaydi (origami); namuna asosida bosma harflarni yozishni boshlaydi; barmoqlari yordamida mashqlar bajaradi; rasmlarni tekis shtrixlaydi; turli sathlarda chizadi (nam qumda, asfaltda, doskada); soch o'radi, mozaika yig'adi. 6-7 yoshda: Tasavvurdagi predmetlarni qo'llari bilan (gul,

qush, kapalak) ko‘rsatadi; arqonlardan turli tugunlarni tugadi; o‘yin faoliyati mobaynida mayda o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydi; belgilangan chiziqlar bo‘ylab qog‘ozni batartib yirta oladi; mayda qismlı mozaika va pazllarni yig‘adi; (qo‘l barmoqlari mayda motorikasi) qog‘ozda to‘g‘ri chiziqlar, so‘zlar va qisqa gaplarni yozadi; daftardagi yozuv qatorlarini anglay oladi; rasmlarni to‘g‘ri joylashtiradi; qo‘lni uzmasdan nuqta chiziqlarni birlashtirib rasm chizadi; matodagi rasmni to‘qiydi; “o‘ziga” va “o‘zidan” harakatlari yo‘nalishini tushunadi; turli materiallardan murakkab namunalarni qirqadi. Bolalarning mayda motorikasini rivojlantirish uchun ko‘plab mashg‘ulotlar, o‘yinlar va mashqlar mavjud. Ularni quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin: barmoq o‘yinlari, mayda buyumlar bilan bog‘liq o‘yinlar, shakl yasash va rasm chizish, barmoqlarni massaj qilish. Mayda motorikani rivojlantirishning eng oddiy va samarali usuli bu kaftlarni massaj qilishdir. Bu usul har qanday yosh uchun eng oddiy va universal usul hisoblanadi. Bunda bolaning kaftlarini silanadi va ularni massaj qilinadi. “Qog‘oz yirtish” usuli – bu mashq ko‘proq 7 oylik bolalarga to‘g‘ri keladi. Bolaga bir necha varaq yumshoq rangli qog‘oz beriladi, bola uni bajonidil ushlab ko‘radi, qo‘llarida aylantiradi va yirtadi. Bu mashg‘ulot bolaga juda katta zavq bag‘ishlaydi. “Sahifalarni varaqlash” – bu usul 1 yoshdan so‘ng qog‘oz yirtishni rasmlari ko‘p bo‘lgan kitobcha yoki jurnal sahifalarini varaqlashga almashtirish mumkin bo‘ladi. Albatta bunda bolani ehtiyotkorlik bilan bajarishga o‘rgatish lozim. “Munchoqlar bilan ishlash” – bolalarga bu mashg‘ulot ya‘ni mayda buyumlarni ushlab yoqadi va bu juda foydali. Bunda bola turli o‘lcham va shakldagi munchoqlari bor taqinchoqni o‘ynashi natijasida uning qo‘l barmoqlari motorikasi rivojlanadi. Yormalarni bilan ishlash – bunda biz kosachaga istalgan yormani solamiz va uni bolaga beramiz. U yormani qo‘li bilan ushlab ko‘radi yoki barmoqlari orasidan to‘kadi. Ushbu o‘yin orqali bolalarning mayda motorika va taktik hissiyotlari yaxshi rivojlanadi.



“Qumda rasm chizish” (qum terapiya) maxsus texnika vositasida bolalar maxsus idishda qum

sepiladi va bolaning barmoqchasini o‘z qo‘limizga olib, uni qum bo‘ylab yuritimiz. Rasm chizishni dastlab chiziq, to‘g‘ri burchak, doira kabi oddiy shakllardan boshlab, ularni asta-sekinlik bilan murakkablashtirishimiz mumkin. Maxsus uskunadagi etti xil rang bolalar chizmasini yetti xilda ko‘rish imkonini beradi. Ushbu jarayon bolalar qo‘l motorikasi faoliyatini yaxshilash imkonini beradi. “Qopqoqlarni burab yopish” – bunda bolalarga turli o‘lchamdagi idishlar taklif etiladi, bankalar, butilkalarning qopqoqlarini burab ochib-yopish kabi oddiy mashg‘ulot barmoqlarning epchilligini rivojlantiradi. Bolalarning mayda motorikasini rivojlantirishda samarali usullardan yana biri bu – tugmani taqish, yechish, iplarni bog‘lashdir. Bunda bolani kiyintirish jarayoniga jalb etiladi va u tugmalari va bog‘ichlarini o‘zi taqsin va yechsin. Bu orqali nafaqat harakatlar rivojlantiriladi, balki bolani mustaqillikka ham o‘rgatiladi. Turli yoshdagi bolalarga mos keluvchi mashg‘ulotlardan biri bu – yumshoq narsalarga shakl berishdir. Ya’ni bunda bolalar plastilin, loy, xamirdan turli narsalarni yasashlari mumkin. Bu orqali bolaning mayda motorikasi bilan birgalikda uning bilish qobiliyatlari, dunyoqarashi, fantaziyasi ham rivojlanadi. Bu kabi mashg‘ulotlarga biz applikatsiya, origami va sahnalashtirish faoliyatlarini ham kiritishimiz mumkin. Rasm chizish va bo‘yash – punktir chiziqlardan iborat rasmlarning konturlari ustidan chizib chiqish hamda turli shakldagi obyektlarni bo‘yash juda foydali. Shuningdek vertical yuzalar – devor, doska, oynada chizish ham foyda beradi. Mozaika va pazllarni yig‘ish orqali ham bolaning motorikasi ham uning tasavvurini mashq qildiriladi. Mayda motorikani rivojlantirish uchun mo‘ljallangan o‘yinlar faqat kattalarning nazorati ostida olib borilishi hamda bunday mashqlarni muntazam ravishda olib borish orqali samarali natijaga erishishimiz mumkin. Ya’ni, bolaning harakatlari ravon, aniq va o‘zaro mutanosib bo‘ladi.

Hozirda ta’lim-tarbiya tizimida asl milliy qadriyatlarga tayanish tobora qaror topib bormoqda va ko‘ngil tarbiyasiga, ya’ni inson ma’naviyatini shakllantirishga birlamchi vazifa sifatida yondashish ustuvor bo‘lib bormoqda. Binobarin, yosh avlodni yoshligidan ma’naviyatli qilib tarbiyalashga e’tibor berib borilsa, u o‘zining katta samarasini beradi. Bolalarimizda kitobga mehr, ishtiyoq uyg‘otish

uchun, avvalo, o'zimiz unga to'g'ri munosabatda bo'lishimiz lozim. Adabiyotga mehr qo'yishning o'zida bir hikmat bor. Bolalar ohangrabosi olam hisoblanib juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir. Bugungi kun psixologlari bolalarni tarbiyalashning usullaridan biri sifatida ertak terapiyani juda ko'p ta'kidlab o'tishmoqda.



Ertakterapiya bu bolani ertaklar orqali tarbiyalash va davolash metodidir. Ertaklar aqlga ham, yurakka ham faol ta'sir ko'rsatadi: aqlni to'ldiradi, yurakni hissiyotdan qiladi. Barchamiz bolalarimizning jasur va intiluvchan, diyonatli, e'tiqodli, aqlli bo'lib voyaga

yetishini istaymiz. Buning uchun esa, uning tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladigan, aqliy salohiyatini o'stiradigan ertaklardan foydalansak bo'ladi. Ertakterapiya atrof-muhit bilan o'zaro munosabatni mukammallashtirish hamda emotsional buzilishlarni to'g'rilashda foydalaniladigan usuldir. Ertaklar bolaga umid beradi. Bola qanchalik Yangi yil kechasi sovg'a olib keladigan Qorboboga ishonsa, u shunchalik hayotga optimist ko'z bilan qaraydi. Ertaklar orqali biz bolani tabriklaymiz, uning ichki dunyosini boyitamiz, qalbini davolaymiz, hayot haqida bilim beramiz, xayolini o'stiramiz. Haqiqiy ertakning asosiy belgisi bu — uning yaxshilik bilan tugashidir. Bu bolaga psixologik himoyalanganlik tuyg'usini beradi. Ertaklarda nimaiki sodir bo'lmasin, yaxshilik bilan yakun topadi, ertak qahramonlarining boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchli va aqlli qiladi. Boshqa tomondan, bola yomon xatti-harakatlarni amalga oshirgan qahramonlarning, albatta, qilmishlariga yarasha jazo olishlarini ko'radi. Barcha sinovlardan muvafaqqiyatli o'tgan, o'zining barcha ijobiy hislatlarini namoyon qilgan qahramonlarning esa albatta mukofotlanishiga amin bo'ladi. Ana shunda hayotning asosiy qonuni yaqqol ko'rinadi: Sen hayotga qanday munosabatda bo'lsang, u ham senga shunday javob qaytaradi. Korney Ivanovich Chikovskiy

shunday yozgan edi: “Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g‘am-tashvishi uchun qayg‘urish, o‘zganing shodligi uchun xursand bo‘lish, begona insonning taqdirini xuddi o‘ziniki kabi boshdan o‘tkazish kabi insoniylikni qanday bo‘lmasin tarbiyalashdan iboratdir”. E’tibor bering-a, bu yerda ikki insonning o‘zaro bir-birini tushunishi, bir-biriga g‘amxo‘rlik qilishi haqida gap bormoqda. Ertaklarga o‘z ijodida jahon psixologlaridan E.Fromm, E.Bern, E.Gordner, I.V.Vajkov, M.Osorina, E.Lisina kabi psixologlar murojaat qilganlar. Ertaklardan bolalar adolat va adolatsizlik haqida o‘zlarining ilk tasavvuriga ega bo‘ladilar. Ertak bolaning murakkab hayotiy muammolarini hal qilish usullarini ongida saqlab qolishga va qayg‘urishga majbur qiladi. Bunda hayotga qarama-qarshi kuchlarning to‘qnash kelishi va ularni hal qilish borasidagi tajriba ortib boradi hamda ijodiy tasavvur rivojlanadi. Aynan xotira bilan uyg‘unlashgan tasavvur bolaga hayotda shu kabi muammolarga duch kelganda qisqa vaqt ichida to‘g‘ri va samarali yechimni topishga imkon beradi. Ertak esa qahramonlarning xatti-harakatlarini misli ko‘rilmagan holatlarda aks ettiruvchi, ammo bolaning xotirasi va ongiga eng asosiy, ba’zan esa ilojsizdek tuyulgan, qiyin holatlarning ham baribir yechimi bor, degan tushunchani singdiruvchi hayotning o‘zidir. Hayotda boshi berk ko‘chalar bo‘lmaydi. Ko‘pincha inson shunchaki, ulardan chiqib ketishga tayyor bo‘lmaydi. Ertakterapiya bolaga nima beradi?

1. Ertakterapiya yordamida xayol, ijodiy tasavvur rivojlanadi, ko‘ngil xotirjamligiga erishiladi.
2. Bola o‘zgalar xatti-harakatlarini tahlil qilishni va bu bilimlarini o‘z xatti-harakatlarida qo‘llashni o‘rganadi.
3. Guruhdagi muloqot orqali ishtirokchilar o‘rtasida kommunikativ aloqa o‘rnatiladi.
4. Ertakterapiya kattalarga ham o‘z fobiya, qo‘rquvlarini yengishga yordam beradi, ulardagi agressivlik va xavotirlikni kamaytiradi.

Ertaklar orqali biz bola qalbidagi muammolarni ochishimiz va yechishimiz mumkin. Bunday ertaklar terapevtik ertaklar deb nomlanadi. Ko‘pincha ertaklar kechqurun uyquga yotishdan oldin aytiladi, sababi bola bu paytda tinch bo‘lib, bu

aynan unga ta'sir o'tkazish uchun qulay paytdir. Shuning uchun kechqurun yaxshilik bilan tugaydigan pozitiv mazmunli ertaklar aytib berish kerak. Shuningdek, oila davrasida, kattalarning muhokamasi bilan tinglangan ertaklar muammoni hal qilishga, korreksiyalashga zamin yaratadi. Ertaklar bolani ulg'aytiradi. Birinchi navbatda ertakni bolaga bajonidil aytib bermoq lozim, shunda xalq ijodidan bola ko'proq narsa oladi. Ertak aytish jarayonida bola ruhan xotirjam, muhit tinch bo'lsa, samarasi yaxshi bo'ladi. Bolaga ertak aytib berayotib unga quyidagi savollarni berishingiz mumkin:

1. Bu ertak nima haqida?
2. Ertak qahramonlari qanday sifatlarga ega? Ular kimga o'xshaydilar?
2. Nega ertak qahramonlari bunday xatti-harakatlarni amalga oshiradilar? Bu nima uchun kerak?
3. Bosh personaj qiyin vaziyatlardan qanday chiqib ketadi? Buni uning o'zi uddalaydimi yoki unga bu ishda kimdir yordam beradimi?
4. Qahramonlarning xatti-harakatlari atrofdagilarga nima beradi – quvonchmi, qayg'umi?
5. Qahramonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday?
6. Ertak, uning ayrim qismlari qanday tuyg'ularni uyg'otadi?

Bolalar uchun ertaklar ularning xayolini, mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantirib, nutqini o'stiradi. Ertaklar xavotirlikni yo'qotib, o'ziga ishonchni orttiradi. N.L.Kryajeva qizg'anchiq egoist bolalarga, "Baliqchi va baliq" haqidagi ertakni qo'rqqoq bolalarga, "Qo'rqqoq quyonlar" haqidagi ertakni ishonuvchanlariga, "Buratinonaning sarguzashtlari"ni qaysar bolalarga, "No'xat ustidagi malika" va "Etik kiygan mushuk" ertaklarini tinib-tinchimas bolalarga, aytib berishni taklif qiladi. Xuddi shunday mazmundagi ertaklar o'zimizning o'zbek xalq ertaklari orasida ham uchraydi. "Zumrad va Qimmat" ertagi bolalardagi erinchoqlik va dangasalikka, "Ur to'qmoq" ertagi yolg'onchilikka, "Susambil" ertagi noahillikka qarshi kurashadi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Barcha ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bola qalbiga ezgulik urug'ini sochadi.

Maslahatlar:

1. Bolaga ertakni o‘qib emas, balki aytib berish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu bolani ertakga qanday munosabat bildirganligini kuzatish imkonini beradi. Qolaversa, ota-ona farzandi bilan birgalikda ertaklar olamiga sayr qiladi, bu esa bolaning unga yolg‘iz sayohatidan ko‘ra afzaldir.
2. Bolalar o‘zgaralar tomonidan tasvirlangan obrazlarni yaxshiroq qabul qilish qobiliyatiga ega. Shuning uchun farzandingizga ertak aytib berish chog‘ida unda yozilgan barcha manzaralarni tasvirlab berishga harakat qiling.
3. Bolangizga ertakni o‘zi tanlash imkonini bering. Agar u o‘n martalab , “Qizil qalpoqcha” haqida eshitishni xohlasa, demak bu bekorga emas. Bu ertak uning ongi shakllanishiga nimadir bermoqda, unda qandaydir jarayon sodir bo‘lmoqda.
4. Muhim bo‘lgan yana bir qoida – bolaga ertakning chuqur ma’nosini tushuntirib bermaslik kerak. Aks holda ertak o‘ladi – o‘z ahamiyatini yo‘qotadi va undan hech qanday naf bo‘lmaydi.
5. Xalq ertaklariga iloji boricha tuzatish va o‘zgartirishlar kiritmaslik kerak, ayniqsa real hayot bilan bog‘liq bo‘lgan.

Bu o‘zgartirishlar bolaning ertaklar olamini qabul qilishida qiyinchilik tug‘diradi. Ertakterapiyaning maqsadi va vazifasi bolalardagi agressivlik kayfiyatini yo‘qotish, o‘z-o‘zini emotsional boshqarish va o‘zgaralar bilan ijobiy munosabatni rivojlantirishdir. Buning uchun ertakterapiya soddaligi va bolalarning ertakka bo‘lgan qiziqishi tufayli ular uchun tushunarli bo‘lgan ertak uslubi va bolalar bilan ishlash yo‘llaridan foydalaniladi. Har bir bola ertakni o‘zicha tushunadi va qabul qiladi. Ertak nafaqat insonning ongiga, balki ong ostiga ham ta’sir qiladi, “ajdodlar xotirasi”ga yoki genetik xotiraga tayana olar ekan, syujetning murakkabligidan qo‘rqish kerak emas. Xatti-harakatdagi emotsional salbiy o‘zgarishlarni to‘g‘rilashga qaratilgan ertaklarda syujetni chuqur anglash emas, balki insonlarning o‘zaro munosabatlarini, ularning ko‘rsatgan qahramonliklarini, u yoki bu tanlovning natijasini, o‘zining ma’lum bir vaziyatga shaxsiy munosabatini, o‘zining shaxsiy hayoti bilan o‘zaro aloqalarini voqea va

qahramonliklari yordamida eshitayotgan, o'qiyotgan insonning qalbidadir. Buni hisobga olish zarur, zero ko'p holatlarda ota-onalar o'zlarining shaxsiy qo'rquvlarini bolaning qo'rquvi deb ta'kidlaydilar. Hayotiy qo'rquv kabi o'lim oldidagi qo'rquv ham nafaqat bolalarga, aksincha, bolalardan ko'ra, ko'proq ota-onalarga xos bo'ladi. Shu bilan birga bu hayotda o'z o'rnini topmaslik qo'rquvi, turmush o'rtog'ini yo'qotish oldidagi qo'rquv, oilaning buzilishidan qo'rqish, ishda obro'-e'tiborga ega bo'lmaslikdan qo'rqishdir. Bu siz bilan bizning qo'rquvimiz, ularni bolalarimizniki deb hisoblash kerak emas. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bola xatti-harakatidagi emotsional buzilishlarni, albatta o'yinlar, o'yinchoqlar, bolaning tasviriy faoliyati, musiqa, teatr va umuman aytganda san'at yordamida ham to'g'rilasa bo'ladi. Lekin, bolalar uchun eng tushunarli va sevimli usul bu – ertakdir. To'g'ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko'plab muammolar – qo'rquv, injiqlik kabilarni yo'qotish, bolada qat'iyat va irodani shakllantiradi. Ertaklarni faqatgina psixologik terapiyadagina qo'llamay, balki oila davrasida muntazam qo'llash bolalik davridagi eng iliq hislarni bola xotirasida muhrlashga imkon beradi. Ertaklar bolaning muammolaridan kelib chiqqan holda tuzilishi, ertak terapiyasini o'tkazish mobaynida bolaning har bir xatti-harakatiga ahamiyat berib borilishi lozim. Bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ertakni qabul qilish darajasini muntazam kuzatib borish lozim.

4-Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlantirishda psixotrening mashg‘ulotlarni o‘rni.

Amaliy mashg‘ulotning ta‘lim texnologiyasi.

O‘quv soati: 2 soat	Tinglovchilar soni: 20-25 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli:	Amaliy mashg‘ulot
Amaliy mashg‘ulot rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya va sportga yo‘naltirishga oid psixotrening mashg‘ulotlarni o‘rni va samaradorligi. 2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni barkamollashtirishga qaratilgan treninglar.
• Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:	Amaliy mashg‘ulotning maqsadi tinglovchilarga maktabgacha ta‘lim tashkilotlari jismoniy tarbiya instruktorlarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini davlat talablari asosida chuqurlashtirish, yangilash va ta‘lim-tarbiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga oid nazariy — metodologik asoslari bilan qurollantirish bo‘yicha nazariy bilimlarni shakllantirish.
• Pedagogik vazifalar:	1. O‘quv natijalari:
<p>– Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya va sportga yo‘naltirishga oid psixotrening mashg‘ulotlarni o‘rni va samaradorligi.</p> <p>– tinglovchilar zamonaviy psixologik metodikani o‘z amaliy faoliyatlarida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;</p> <p>– o‘z kasbiy mahoratini takomillashtirish maqsadida tinglovchilar shaxsiy ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalari haqida tasavvurlar hosil qilishga o‘rgatish;</p>	2. Amaliy mashg‘ulotdan so‘ng tinglovchilar bilishi lozim:
• Ta‘lim metodlari:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ta‘lim-tarbiyada differensial yondashuv jarayonida bolalarning biologik va ijtimoiy rivojlanish omillarining roli; 2. Xarakterdagi individual farqlar; 3. Bolaning maktabga yetuklik jihatlarining psixologik xususiyatlarini; 4. Bolaning bilish jarayonlari, emotsional-motivatsion sohasini rivojlanishida o‘yin faoliyati ahamiyati 5. Bolalarni ta‘lim jarayoniga aqliy va ijtimoiy-psixologik tayyorlashning psixologik tomonlarini bilish; 6. Bilish faoliyati sohasida bolaning maktabdagi ta‘lim jarayoniga tayyorligi darajasini tushunish; 7. Bolalarning maktabga tayyorgarligini tekshirishda psixodiagnostika metodlaridan foydalanish haqida bilishi kerak.
• Ta‘lim vositalari:	• Ma‘ruza, suhbat, munozara, tezkor so‘rov.
• Ta‘lim shakli:	• Ma‘ruzalar matni, kompyuter texnologiyalari, videoproyektor, prezentatsiyalar.
• O‘qitish shart-sharoitlari:	• Frontal, guruhlarda ishlash.
• Monitoring va baholash.	• Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
	• Nazorat savollari.

4-MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANTIRISHDA PSIXOTRENING MASHG‘ULOTLARNI O‘RNI.

Reja:

4.1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya va sportga yo‘naltirishga oid psixotrening mashg‘ulotlarni o‘rni va samaradorligi.

4.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni barkamollashtirishga qaratilgan treninglar.

Tayanch iboralar: Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya va sportga yo‘naltirishga oid psixotrening mashg‘ulotlarni o‘rni va samaradorligi. Trening tushunchasi va tashkil etish bosqichlari (futbol, basketbol, volan va raketka, badminton, suzishga oid psixotreninglar.

4.1. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA YO‘NALTIRISHGA OID PSIXOTRENING MASHG‘ULOTLARNI O‘RNI VA SAMARADORLIGI.

Maktabgacha bo‘lgan davr — 3 dan 7 yoshgacha. Undan avvalgi davrdagi kabi u bo‘y o‘shining bir oz sekinlashuvi bilan tavsiflanadi. Bola ortiqcha og‘irlikni yo‘qotadi, uning mushaklari mustahkamlanib, skeleti kuchli rivojlanadi. Maktabgacha davr oxiriga kelib sut tishlarining almashinishi boshlanadi. Kasalliklarga tez chalinmaydigan bo‘ladi.

3-6 yoshli bolalarning rivojlanishi. Maktabgacha davrda go‘yo sog‘lomlik va to‘laqonli jismoniy rivojlanishning poydevori qo‘yiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tana hali yetarlicha turg‘un emas, harakat imkoniyatlari ham cheklangan. Ularning asab tizimi tez rivojlanadi, skeleti o‘shib, mushak tizimi mustahkamlanadi, harakatlar takomillashadi. Diqqat ancha barqarorlashib, bolalar eng sodda mehnat ko‘nikmalarini egallay boradilar. Gavdaning umumiy statik beqarorligi hamda dinamik imkoniyatlari cheklanganligi 3-4 yoshli bolalarga xos bo‘lib, bu yoshdagi bolalarda gavdaning yuqori qismi, yelka sathi mushaklari va bukuvchi mushaklar nisbatan yaxshi rivojlangan, 3-4 yoshli bolalarda harakatlar yetarlicha muvofiq bo‘lmagani holda harakat faolligi yuqori darajada bo‘lib, bu harakatlarda yirik mushak guruhlari ishtirok etadi. Mazkur davrda uzoq muddat bir xil vaziyat saqlab turilsa yoki bir turli harakatlar bajarilaversa, tez toliqish kuzatiladi. 7 yoshgacha o‘pka to‘qimasining tuzilishi hali to‘la rivojlanmagan holda bo‘ladi; burun yo‘llari, traxeya va bronxlar nisbatan tor, shu sababli o‘pkaga havoning kelishi bir oz

qiyinroq; qovurg'alar birmuncha qiyaroq, diafragma yuqoriroq joylashgan, shuning uchun nafas olish harakatlari amplitudasi katta emas. Bola kattalarga nisbatan yuzaki va ancha tez-tez nafas oladi: 3-4 yoshli bolaning nafas olish sur'ati - bir daqiqada 30 marta, 5-6 yoshda - 25 marta, kattalarda 16-18 marta. Bolalarning yuzaki nafas olishi o'pkada havo aylanishining nisbatan yomon bo'lishi, havoning o'pkada bir oz turib qolishiga olib keladi, o'sayotgan organizm esa to'qimalarning kislorod bilan yetarlicha ta'minlanishini talab qiladi. Aynan shuning uchun ham ochiq havoda o'tkaziladigan jismoniy mashqlar juda muhim bo'lib, ular havo almashinishini faollashtiradi. 3-4 yoshli bolalarda o'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS) 400-500 sm³ ni, 5-6 yoshda esa 800-900 sm³ni tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yurak-qon tomir tizimi faoliyati o'sayotgan organizmning talablariga yaxshi moslashgan, to'qimalarning qon bilan ta'minlanishiga bo'lgan kuchli ehtiyoj osonlik bilan qondiriladi, chunki bolaning tomirlari kattalarnikiga nisbatan kengroq bo'lib, ulardan qon erkinroq oqib o'tadi. Bola organizmidagi qon miqdori kattalarnikiga nisbatan ko'proq, uning tomirlar bo'ylab o'tadigan yo'li qisqaroq. Masalan, agar katta odamning tomir urishi bir daqiqada 70-74 zarbaga teng bo'lsa, maktabgacha yoshdagi bolada o'rtacha 90-100 zarbani tashkil etadi. Yurak asab boshqariluvini takomillashgan emas, shuning uchun uning qo'zg'alishi tez, qisqarishlar ritmi osongina buzilishi mumkin, jismoniy yuklama ostida yurak mushagi ancha tez toliqib qoladi. Lekin faoliyat o'zgarishi bilan bolaning yuragi tez tinchlanib, o'z kuchini tiklab oladi. Shuning uchun ham bolalar bilan shug'ullanganda jismoniy mashqlarning xilma-xilligiga e'tibor berish: harakatli o'yinlarni birmuncha tinch sur'atli o'yinlar bilan navbatlash va bolaga tez-tez qisqa muddatli dam olish tanaffuslari berib turish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda 3 yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan asab tizimi yaxshiroq rivojlangan bo'ladi. Bu davrda bosh miyada asab hujayralarining yetilishi jarayoni nihoyasiga yetadi, bosh miya tashqi ko'rinishi va og'irligiga ko'ra katta odam miyasiga yaqinlashib qoladi, biroq asab tizimi hali ancha kuchsiz bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ta ta'sirchanligini hisobga olish, ularga nihoyatda ehtiyotlik bilan muomala qilish: uzoq muddatli, og'ir yuklamalar

bermaslik, haddan ortiq toliqtirmaslik kerak, chunki bu yoshda ta'sirlanish jarayonlari tormozlanish jarayonlaridan ustun bo'ladi. Bolalarda etti yoshgacha, garchi ularda qon bilan ta'minlanish kattalarnikidan yaxshiroq bo'lsa-da, suyaklarning shakllanish jarayonlari tugallanmaydi. Skeletda tog'aysimon to'qimalar ko'p bo'lib, shu tufayli uning keyingi rivoji ro'y beradi; ayni vaqtda suyaklarning yumshoqligi ham shu bilan tushuntiriladi. Mushak to'qimasining o'sishi asosan mushak tolalarining yo'g'onlashishi hisobiga yuz beradi. Ammo suyak-mushak apparatining nisbatan kuchsizligi va tez toliqishi sababli maktabgacha yoshdagi bolalar uzoq muddatli mushak zo'riqishlariga bardosh berolmaydilar. Kichik maktab yoshidagi bolalar yurish paytida hali aniq harakatlana olmaydilar: ular ritmik tarzda yugur olmaydilar, tez-tez muvozanatni yo'qotib yiqiladilar. Ularning ko'pchiligi pol yoki yerdan yaxshi itarila olmaydilar, oyoq kaftiga to'la tayanib yuguradi. Ular o'z tanalarini hatto arzimmas balandlikka ham ko'tara olmaydilar, shuning uchun balandlikka to'siqlar osha hamda bir oyoqlab sakrashlarni bajarishga qiynaladilar. Bu davrda maktab yoshidagi bolalar qiziqish bilan ko'ptok o'ynaydilar, lekin hali ularning harakatlari o'zaro muvofiqlashmagan, ko'z bilan mo'ljal olish rivojlanmagan: ularning ko'ptokni ilib olishlari qiyin. Bolalar har turli harakatlardan tez toliqadilar, chalg'iydilar. 4,5-5 yoshlarga kelib bolalarning harakatlari ancha muvofiqlashib qoladi, ular sakrash, to'siqlar osha sakrab o'tish, to'pni ilish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. 6 yoshlilarda yengillik paydo bo'lib, yugurish ritmi barqarorlashadi, yon tomonga tebranishlar kamayadi, ular balandlikka, uzunlikka, to'siqlar osha sakraydilar, ko'ptokni nishonga urishni o'zlashtiradilar, ko'z bilan mo'ljal olish kuchayadi. Katta maktab yoshidagi bolalarning kichiklarga qaraganda gavdasi baquvvat, mushaklari mutanosib rivojlangan. Yurish va yugurish chog'idagi asosiy harakatlari asta-sekin avtomatik darajasiga yetadi, harakatlar muvofiqligi kuchayadi, qo'l mehnatiga qobiliyat sezilarli darajada ortadi. Turg'unlik ortgani uchun oddiy muvozanat mashqlarini, chaqqonlik bilan yugurishni amalga oshirish osonlashadi. Bolalar chidamliroq bo'la boradilar, biroq ular dastlabki holatlarini tez-tez o'zgartirib, rang-barang harakatlarni bajarishlari lozim. Bu yoshda ularning

faoliyati asta - sekin mazmun bilan boyib, ongliroq bo'la boradi. Jismoniy tarbiya va sport sohasining ko'pgina olimlari fikricha, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiyalashdan maqsad shaxsning jismoniy va ma'naviy madaniyati asoslarini shakllantirish, salomatlik zahiralari sog'lom turmush tarzida faol hamda uzoq muddat davomida amalga oshirilayotgan qadriyatlar tizimi sifatida yuksaltirishdan iboratdir.

Har bir yosh o'z jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanish darajasiga ega. Bolaning imkoniyatlarini uning yoshi, yoshiga qarab taqqoslashni osonlashtirish uchun tarbiyachilar uchun yoshga qarab davriylashtirish ishlab chiqilgan. Bu yoshga bog'liq xususiyatlarni ta'kidlashga asoslangan. Yoshga bog'liq xususiyatlar ma'lum bir hayot davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va aqliy fazilatlaridir. Aqlli tashkil etilgan tarbiya yoshga bog'liq xususiyatlarga moslashishi, ularga asoslanishi kerak. 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan davrda bola fikrlash, atrofdagi dunyo haqidagi g'oyalarni, o'zini va hayotdagi o'rmini anglash, o'zini o'zi qadrlashni jadal rivojlantirishni davom ettiradi. Uning asosiy faoliyati - o'yin. Asta-sekin u uchun yangi motivlar paydo bo'ladi: xayoliy vaziyatdagi rol. Asosiy rolning namunasi kattalardir. Agar kecha bu ko'pincha onasi, otasi va tarbiyachilari bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda televizorning ta'siri ostida bolalar, gangsterlar, qaroqchilar, jangarilar, tajovuzkorlar va terrorchilar psixikasini yo'q qiladigan narsalar ko'pincha butlarga aylanadi. Hayotda bolalar ekranda ko'rgan narsalarini olib yuradilar. Bolaning aqliy va ijtimoiy rivojlanishida yashash va tarbiyaning hal qiluvchi roliga oid pozitsiya tasdiqlangan. Uning qanday rivojlanishi va qanday ulg'ayishi atrofdagi odamlarga, uni qanday tarbiyalashiga bog'liq. Maktabgacha bolalik - bu barcha yo'nalishdagi rivojlanish jarayonlari juda qizg'in bo'lgan davr.. Ushbu xususiyatlardan ta'limda to'liq foydalanish kerak. Uning har tomonlama ekanligiga ehtiyot bo'lish kerak. Faqat axloqiy tarbiyani jismoniy, mehnat bilan hissiy, aqliy estetik bilan organik ravishda bog'lab, barcha fazilatlarining yaxlit va kelishilgan rivojlanishiga erishishimiz mumkin. Maktabgacha tarbiyachining qobiliyati uning idrokining sezgirligida, obyektlarning eng xarakterli xususiyatlarini ajratib olish, qiyin vaziyatlarni

tushunish, nutqda mantiqiy-grammatik inshootlardan foydalanish, kuzatish, aqlli bo'lish qobiliyatida namoyon bo'ladi. 6 yoshga kelib, maxsus qobiliyatlar, masalan, musiqiy qobiliyatlar rivojlanadi. Bolaning tafakkuri uning bilimlari bilan bog'liq - u qanchalik ko'p bilsa, yangi fikrlarning paydo bo'lishi uchun g'oyalar shunchalik ko'p bo'ladi. Biroq, yangi bilimlarni qo'lga kiritib, u nafaqat oldingi g'oyalarini aniqlashtiribgina qolmay, balki noaniq, aniq savollarga emas, taxminlar va taxminlar ko'rinishida harakat qiladi. Va bu bilim jarayonining o'sishi uchun ma'lum "to'siqlarni" keltirib chiqaradi. Keyin bola tushunarsizlar oldida "sekinlashadi". Fikrlash yoshga qarab cheklanadi va "bolalarcha" bo'lib qoladi. Albatta, turli xil xilma-xil usullar bilan bu jarayon biroz majburlanishi mumkin, ammo 6 yoshli bolalarni o'qitish tajribasi ko'rsatganidek, bunga intilish qiyin. Maktabgacha yoshdagi bola juda qiziquvchan, ko'plab savollarni beradi, darhol javob berishni talab qiladi. Bu yoshda u tinimsiz izlanishda davom etadi. Bu yoshda nutqning eng samarali rivojlanishi sodir bo'ladi. Lug'at tarkibi o'sib bormoqda (4000 so'zgacha), nutqning semantik tomoni rivojlanmoqda. 5-6 yoshga kelib, ko'pchilik bolalar to'g'ri talaffuzni o'rganadilar. Bolalar va kattalar o'rtasidagi munosabatlarning tabiati asta-sekin o'zgarib boradi. Ijtimoiy normalar va mehnat ko'nikmalarini shakllantirish davom etadi. Agar ushbu fazilatlar jadal shakllanganda davr o'tkazib yuborilsa, ularni ushlab oson bo'lmaydi. Bu yoshdagi bola osongina haddan tashqari siqilib ketadi. Har kuni hatto qisqa televizion ko'rsatuvlarni tomosha qilish uning sog'lig'i uchun yomondir. Ko'pincha, 2 yoshli chaqaloq bir soat yoki undan ko'proq vaqt televizorda ota-onalar bilan o'tiradi. U eshitgan va ko'rgan narsasini hali tushuna olmaydi. Uning asab tizimi uchun bu g'ayritabiiy ogohlantiruvchi, charchatadigan eshitish va ko'rishdir. Faqat 3-4 yoshdan boshlab bolaga haftada 1-3 marta 15-20 minut davomida bolalar translyatsiyasini tomosha qilishga ruxsat beriladi. Agar asab tizimining haddan tashqari siqilishi tez-tez ro'y bersa va uzoq vaqt davom etsa, bola asab kasalliklaridan aziyat chekishni boshlaydi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, maktabga bolalarning atigi to'rt dan bir qismi sog'lom keladi. Va buning sababi -bu oddiy jismoniy rivojlanishdan mahrum qiladigan, charchatadigan, miyani tiqib

chiqaradigan bir xil yomon televizor. Ota-onalar hali ham tarbiyachilar va shifokorlarning maslahatlariga beparvo munosabatda bo'lishadi. Maktabgacha yoshdagi davrning oxiriga kelib, bolalar kuchli irodali harakatlar bilan, ongli ravishda qo'yilgan maqsad bilan bog'liq bo'lgan ko'ngilli, faol e'tiborni shakllantirishni boshlaydilar. O'zboshimchalik va ixtiyoriy e'tibor bir biriga, biridan boshqasiga o'tadi. Tarqatish va kommutatsiya kabi xususiyatlar bolalarda kam rivojlangan. Maktabgacha yoshdagi bola allaqachon ko'p narsani biladi va qila oladi. Ammo uning aqliy qobiliyatiga haddan tashqari ahamiyat bermaslik kerak, chunki u mohirona iboralarni qanchalik mohirlik bilan aytayotganiga ta'sir qiladi. Mantiqiy fikrlash shakli unga deyarli etib bormaydi, aniqrog'i, u hali unga xos emas. Vizual-majoziy fikrlashning yuqori shakllari maktabgacha tarbiyachining aqliy rivojlanishining natijasidir. Uning aqliy rivojlanishida asosiy rolni matematik tasvirlar o'ynaydi. O'yinda bolalar obyektlar shakli, hajmi, miqdori to'g'risidagi tushunchalarni hech qanday mashg'ulotsiz o'rganishlari mumkin, ammo maxsus pedagogik rahbariyatsiz ular o'zaro tushunish munosabatlaridagi "to'siqlarni" bosib o'tishlari qiyin. Masalan, ular qayerda kattaroq, ammo qayerda ko'proq ekanligini aniqlay olmaydilar. Ikki bargda nok bo'yalgan. Birida yettitasi bor, lekin ular juda kichik va bargning yarmini egallaydi. Ikkinchisida uchta nok bor, ammo ular katta va bargning barchasini egallaydi. Ko'p nok qayerda deb so'ralganda, ko'pchilik uchta nok bilan bargni ko'rsatib, noto'g'ri javob beradi. Ushbu oddiy misol fikrlashning asosiy imkoniyatlarini ochib beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga hatto juda qiyin va murakkab narsalarni (masalan, integral hisoblarni) o'rgatish mumkin, faqat ular ozgina tushunishadi.

4.2. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BARKAMOLLASHTIRISHGA QARATILGAN TRENINGLAR.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun psixologik treninglar, birinchi navbatda, qiziqarli o'yinlar va mashqlar bo'lib, ular davomida amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Treningning shakli trening ishtirokchilarining tarkibi va xatti-harakatlariga, shuningdek, ularning motivatsiyasiga qarab o'zgaradi.

Ushbu yondashuv har bir bolani ochishga imkon beradi, erkinlashtiradi va jamoaviy o‘zaro ta’sirni o‘rgatadi. Qiziqarli o‘yin mashqlari muloqot va shaxsiy sohalarni rivojlantirishga, bolalar o‘rtasida hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Treninglar bolalarda o‘zining va boshqalarning hissiy holatini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi, o‘ziga ishonchni oshiradi, har bir bolaning ijtimoiy mavqeyini oshiradi va mushaklarning kuchlanishini bartaraf etishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5198 – son farmonida ta’kidlaganidek, maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘in hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tayyorlash va maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu farmonga muvofiq maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash ta’lim tarbiya jarayoniga zamonaviy dastur va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart — sharoitlar yaratishdan iborat. Barchaga ma’lumki, bolani maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi maktabgacha tarbiya yoshidagi tayyorgarlik darajasiga bog‘liq. Bolani maktabda o‘qishga-hayotning yangi bosqichiga tayyorlash uning shaxsi rivojlanishining barcha tomonlarini o‘z ichiga oladi va maktabgacha tarbiya davrida amalga oshiriladi. Maktab dasturlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda maktabga kelayotgan bolalarning rivojlanishi darajasiga talablar ortib bormoqda. Bu rivojlanish darajasi maktabda o‘qishga tayyorgarlik bilan belgilanadi. Maktabga psixologik tayyorgarlik ilk o‘quv motivlarining shakllanganligi, bolaning bilish ruhiy jarayonlarining yetarli darajada rivojlanganligi, yangi ijtimoiy muhitga moslashish va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarining mavjudligi, ma’naviy-axloqiy jihatlari, shuningdek, aqliy imkoniyatlarining ta’lim

talablariga mutanosibligi bilan izohlanadi. Psixologiyada faol ijtimoiy-psixologik tayyorlov metodlari deganda, avvalo bola shaxsi yoki bolalar jamoasini samarali faoliyat malakalariga o'rgatish va ulardagi kommunikativ bilimdonlikni oshirish usullari tushuniladi. Demak, bola o'z hayotida shaxsiy tajriba, ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni orttirib borishi jarayonida hosil bo'ladigan stixiyali, bevosita shakllanadigan ijtimoiy bilimdonlik yoki kommunikativ savodxonlikdan farqli o'laroq, fanda ushbu jarayonlarni maqsadli shakllantirish uchun qo'llaniladigan uslublar majmui mavjud. Ba'zi psixologik adabiyotlarda ularni qisqacha qilib, ijtimoiy psixologik trening (IPT) deb atashadi.

Treningning tabiiy hamda maxsus tarzda uyushtirilgan turlari haqida mulohaza yuritish mumkin. Birinchi holatni biz hattoki, kichik yoshli bolalarda ham kuzata olamiz. Masalan, yosh bolalarning turli ijtimoiy rollar doirasida o'zaro har xil roli va syujetli o'yinlari bilan mashg'ul bo'lishlari, unda turli rollar (o'qituvchi, tarbiyachi, haydovchi, boshliq va hokazo)ni improvizatsiya qilishlari, tabiiyki, ulardagina faqat dunyoqarashni, balki bo'lg'usi ijtimoiy faoliyatlarga tayyor bo'lishlarida katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotni amalga oshirishning asosiy turlaridan biri bu o'yindir. O'yin bog'cha yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. Maktabgacha ta'limda ijtimoiy psixologik treninglarni qo'llashda didaktik o'yinlar mobaynida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'yinga oid psixologik trening — bu bolani muloqotga o'rgatish uchun bajariladigan o'yin mashqlari va xatti-harakatlar tizimidir. Treningning asosiy maqsadi bolani psixologik (ruhiy) zo'riqish, asabiy tanglikdan ozod qilish, unda tabiiy erkinlikni his etish hamda o'z guruhida va undan tashqarida o'zaro munosabat, aloqa o'rnata olishini shakllantirishdir. Masalan, bolani boshqa bolalarni yoki o'zini o'zi tushunishga o'rgatish, o'zgalarni va o'zini

o‘rganish, o‘ziga-o‘zi baho berishni ta‘minlash, boshqalarni tushunish va ularni idrok qila bilish kabilardir. Treningni muvaffaqiyatli o‘tkazishning va uning sermahsulligi ko‘p jihatdan, treningni olib boruvchi (yo‘riqchi) bilan ishtirokchilar (bolalar) o‘rtasidagi o‘zaro bir-birini tushunish darajasiga bog‘liqdir.

Bolalarda kommunikativlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi mashqlar. Bolalarda bilim ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘yinlar

«So‘zlarni ayting»

Bolani bir mavzuga mos keladigan narsalar yoki tushunchalarni eslab qolish va nomlashni so‘rang. Misol uchun, ayting: “siz bilgan barcha sport turlari nomini ayting”. Ushbu mashq bolalarda aqlning moslashuvchanligi, xotirasi, ma’lum ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatini o‘rgatadi.

«So‘zni tushuntiring»

Bolaga bir nechta oddiy so‘zlarni (futbol, basketbol, volan, raketka, badminton, suzish va boshqalarni) taklif qiling. Vazifa-bu so‘zlarni o‘z nomlarini ishlatmasdan tushuntirish - Misol uchun, siz bolaga ushbu tushunchalarni ushbu mavzu bilan tanish bo‘lmagan o‘tmishdan begona yoki insonga tushuntirishni taklif qilishingiz mumkin. Ushbu o‘yin ko‘pincha bolaning nutq rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi.

«Umumiy nima?»

Ushbu mashqda Leonardo da Vinchi bo‘sh vaqtlarida o‘zini o‘ziga jalb qilishni yaxshi ko‘rganligi haqida fikrlar bor. U bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan ikkita obyektни oladi va ular o‘rtasidagi munosabatlarni topishga harakat qiladi. Bolaga bunday o‘yinni o‘ynashni taklif qiling. Futbol va suzish o‘rtasida qanday umumiylik bor? Qurbaqa va to‘p o‘rtasidagi munosabatlar qanday? Ushbu mashq nafaqat fikrlash tezligini va nostandart fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, balki kayfiyatni yaxshilaydi.

«So‘zlarni eslab qolish» Bolaga bir necha so‘z beriladi. Uning vazifasi so‘zlarni eslab qolish va ulardan hikoya qilishdir. Yod olish uchun

assotsiatsiyalar, umumlashma usulini qo'llash mumkin, ammo so'zlarni yozish yoki chizish mumkin emas.

Bu yoshdagi bola mustaqil va tashabbuskor. Bu o'yin davomida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal qilishda, o'yin mavzularini tanlashda, savollarni va hukmlarni chiqarishda namoyon bo'ladi.

Psixologik treninglar bolalarning amaliy faoliyati sanaladi. Shuning uchun ham psixologik treninglar bolalarning bilish faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Shuningdek, psixologik treninglar bolalarni tevarak-atrof to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, o'z shaxsiy tajribalari va mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlari, ijodiy kuchlar, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi.

1-kichik guruh uchun vazifa

Otabek 6 yoshda. U juda sekin harakat qiladi. Shoshilmasdan yuradi va past gapiradi. Jismoniy mashg'ulotlarga befarq munosabatda bo'ladi. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining ko'rsatmalariga amal qilmaydi, lekin undan so'ralganda mashqni to'g'ri bajaradi. Nima uchun ko'rsatmaga amalga qilmaganligi so'ralsa, "E, o'zim shunday" deb javob beradi. O'zi hech kim bilan tortishmaydi, bolalar urishib qolishsa, unga aralashmaydi. O'yinga qo'shilmaydi, ko'pincha jim o'tiradi. Tartibni yoqtiradi.

Savollar:

1. Berilgan tavsifga ko'ra bolani psixologik jihatdan baholang?
2. Bolaning temperamenti qaysi tipga mansub?

2-kichik guruh uchun vazifa

Jismoniy tarbiya yo'riqchisi bolaga mashq beradi. Bola esa mashqni bajargisi kelmay "Men bu mashqni bajarishni xohlamayman" deydi.

Savollar

1. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi bu vaziyatda qanday yo'l tutishi kerak?
2. Bolaning bu holatini qanday baholash mumkin?

3-kichik guruh uchun vazifa

Bola tayyorlov guruhidagi jismoniy mashg'ulotlarda o'zining qobiliyati hamda yutuqlaridan qoniqish hosil qilmaydi. U mashg'ulotlarga unchalik qiziqmaydi. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining ogohlantirishlariga yig'i bilan javob beradi.

Savollar

1. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi bunda qanday ishlarni amalga oshirishi kerak?
2. Bolani maktab ta'limiga tayyor deyish mumkinmi?

4-kichik guruh uchun vazifa

Bobir 7 yoshda. U juda qiziquvchan. Yuklamasi yuqori bo'lgan mashg'ulotlarni ham uddasidan chiqqa oladi. Juda harakatchan. Hech ham jim turolmaydi. Boshini hamma yoqqa qaratadi, behalovat. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining ko'rsatmalariga fikrlamasdan amal qiladi. Diqqatini mashg'ulotga to'liq qarata olmaydi. Guruhdoshlari bilan chiqisha olmaydi.

Savollar

1. Bu bolaga qanday tavsif berish mumkin?
2. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi bunda qanday ishlarni amalga oshirishi kerak?

5-kichik guruh uchun vazifa

Lola 5 yoshda. U juda serg'ayrat, serharakat qiz. Jismoniy mashg'ulotlarda tinch o'tirmay, yoki yonidagi sherigi bilan gplashib bajaradi, yoki doimo qo'lida nimanidir o'ynatadi. Har bir yangi narsaga qiziqadi, lekin tez soviydi. Ko'pincha

kayfiyati ko‘tarinki va tetik. Ba’zida xafa bo‘lib yig‘lasada, tezda ovunadi. Mimikasi yorqin, jonli. Dugonalari bilan yaxshi chiqishadi. Yangi talablarga tezda ko‘nikadi. Juda sergap.

Savollar

1. Bu qizning tempermentini qanday tavsiflash mumkin?
2. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi bunda qanday ishlarni amalga oshirishi kerak?

6-kichik guruh uchun vazifa

Bola Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi bilan suhbatda shunday dedi: “Boshqa bolalarga nisbatan menga yaxshiroq munosabatda bo‘lishingizni xohlayman”.

Savollar

1. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi bunga javoban nima deyishi kerak?
2. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisiga nima maslahat berishi mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
2. Pulatov J.A. Yosh davrlari psixologiyasi. [Matn]: Darslik. Toshkent: “Umid design”, 2022.-203 b.
3. Детские народные подвижные игры [ТЕКСТ]: кн. Для воспитателей дет.сада и родителей / сост.: А.В. Кенеман, Т.И. Осокина. – 2-е изд., М.: Просвещение, 1995. – 224 с.
4. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma: Q.1 / X. Tulenova [va boshq.]; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2012. – 72 b. ISBN978-9943-13-350-1
5. Кенеман А.В. Теория и методика физического воспитания детей дошкольного возраста [ТЕКСТ]: учеб.для студентов вузов / А.В. Кенеман, Д.В. Хухлаева. – 3-е изд., – М.: Просвещение, 1985. – 271 с.
6. Мухина В.С. Детская психология. учеб. для студентов./под ред. Л.А. Венгера. – 2-е изд., – М.: Просвещение, 1985. – 272 с.
7. Смирнова Е.О. Детская психология. учеб. для студентов выш. пед. учеб. заведений, «Дошкольная педагогика и психология»/ Смирнова Е.О. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2008. – 366 с. ISBN 978-5-691-00893-1

8. Tulenova X.B. Sport psixologiyasi: 5141900 – Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.; “Yurist-mediya”, 2011. – 270 b. ISBN 978-9943-387-09-6
9. Урунтаева Г.А. Детская психология: учеб. для студентов выш. пед. учеб. заведений / Урунтаева Г.А. . – М.: изд. центр “АКАДЕМИЯ”, 2013. – 336 с. ISBN 978-5-7695-9674-2
10. Voxidov M. Bolalar psixologiyasi. Toshkent. 1974
11. Kurbonova Sh.N. Bolalar psixologiyasi. “Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari” yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma. 2023.-74 b.
12. Грецов А. Г. Подвижные игры в психологических тренингах со старшеклассниками и студентами // Адаптивная физическая культура. 2004. –№ 1. — С. 32 — 33.
13. Тиунова О. В. Психологический тренинг на уроках физической культуры // Молодежь и общество. — 2012. — № 3. — С. 102 — 108.

A 3D blue rectangular frame with a light blue horizontal bar across the center. The word "GLOSSARIY" is written in bold, black, serif capital letters on the bar.

GLOSSARIY

Atama	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Psixolog	psixologiya mutaxassisi	a specialist in psychology
Stenografist	og‘zaki nutqni (so‘zni) ma‘lum shartli belgilar asosida tezkor yozib boruvchi mutaxassis	a specialist who quickly records oral speech (words) on the basis of certain symbols
Adekvatlik	teng, o‘xshash, muvofiq kelmoq	equal, similar, consistent
Analogiya	psixik hodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o‘xshashligi.	the similarity of mental phenomena and behavioral characteristics
Anketa	metodlardan biri bo‘lib, respondent to‘g‘risida aniq ko‘zlangan ma‘lumotlarni yig‘ish maqsadida qo‘llaniladi	one of the methods used to collect specific information about the respondent
Assotsiatsiya	psixik xodisalar orasidagi o‘zaro bog‘lanish, u ma‘lum qonunlar bo‘yicha tarkib topadi	the interrelationship between mental phenomena, which is composed according to known laws
Audivizualidrok	shaxsning bir vaqtning o‘zida ham eshitib, ham ko‘rib idrok qilishi	the ability of a person to both hear and see at the same time
Autogen mashq	shaxsning o‘z-o‘zini ishontirish va o‘z-o‘zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul	a psychotherapeutic method based on self-assurance and self-management
